

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 27-oktabr, chorshanba № 44 (9369)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Saylovoldi ham o'quvchilar-dan insho oldik. Insho desa o'quvchilarning ta'bi tirriq bo'ladigan bo'ldi. Insho, diktant olgan bilan xalqning siyosiy ongi oshib qolarmidi?! Aslida ijtimoiy-siyosiy ongni oshirish uchun targ'ibot-tashviqot ishlari kuchaytirilishi kerak. Buning uchun mahalla fuqarolar yig'inlari va hokimlikka qarashli tashkilotlar uyg'onishi lozim. Bo'lmasa, majburiyat ta'lim dargohlariga yuklatilaveradi. O'qituvchilar o'z ishini bajarishiga qo'yib berilmas ekan, ta'lim oqsayveradi.

Sarvinoz SUNNATOVA

Yangi Milliy o'quv dasturidan hafsalam pir bo'ldi. Chet davlatlarning ta'lim tizimiga ko'r-ko'rona ergashish oqibatida yaqin 30–40 yilda nafaqat o'zbek tiliga e'tibor susayadi, balki o'zbekona milliy g'urur va boshqa sof tuyg'ularni ham yo'qotamiz. Ona tili va o'qish fanlarining biriktirilishi katta xato deb hisoblayman. Hozir bolalarning bu fanlarni o'zlashtirishi oldingidan ancha past. Bu yangilik bizga qimmatga tushishi mumkin.

Odiljon ERQULOV

Ota-onalar hali ham kundalik comni tushunmaydi. Shahar bilan qishloq orasida yer bilan osmoncha farq bor. Hovlisidagi ishini qilsinmi, bir etak bolasiga qarasinmi? Kundalik.com nimaligi ularning tushiga ham kirgani yo'q. O'zimiz baho qo'yib, o'zimiz tasdiqlagandan nima foyda? Ta'limga biror yangilik joriy etish oldidan maktablarning, aholining moddiy sharoiti ham hisobga olinsa yaxshi bo'lardi.

Shahlo NIYOZOVA

Halokat ostonasidagi millat ziyoxonasi

uni asrash uchun davlat milliy dasturi kerak!

3-bet



O'qituvchi va
o'quvchilar
teatrqa bepul
kiritilishi
kerak!

4-bet

Yakshanba
ikkita
bo'lsa edi...

yoxud besh kunlik ish haftasi orzusi

2-bet

Taklif

Bu yil fan olimpiadalarining tuman bosqichi mutlaqo yangi shaklda, har bir fan yoki bir-biriga yaqin fanlar bo'yicha alohida-alohida kunlarda o'tkazildi. Tarix va geografiya fanlari 17-oktabr, yakshanba kuniga to'g'ri keldi. Ochig'i, bu holat tarix-geografiya fanlari o'qituvchilarini xursand qildi deb bo'lmaydi. Ko'pchilik o'z noroziligini, xalqimizning qadimiy, alam va kinoyaga yo'g'rilgan "Oyda, yilda bir bozor, uniyam yomg'ir buzar" degan maqolida ifoda etishdi.

Yakshanba ikkita bo'lsa edi... yoxud besh kunlik ish haftasi orzusi

Ayol ustozlardan biri esa "Eh, qaniydi yakshanba ikkita bo'lganda edi...", dedi. Bu gapni eshitishim bilan, bir necha o'n yillardan buyon qalbmida saqlab kelayotganim, besh kunlik ish haftasi haqidagi orzularim esimga tushdi...

Besh kunlik ish haftasi biz o'qituvchilar uchun orzu bo'lsa, ko'pgina boshqa soha vakillari uchun esa allaqachon reallikka aylanib ulgurgan. Dunyodagi davlatlarning ko'pchiligida ta'lim jarayoni besh kunlik ish haftasida olib borilmoqda. Mamlakatimizdagi ayrim OTMlarda ham.

Ayrim rivojlangan davlatlarda esa iqtisodiyotning barcha sohalarini to'rt kunlik ish haftasiga o'tkazish bo'yicha tajriba-sinovlar o'tkazilmoqda. Dunyoda vaziyat shunday ekan, demak mamlakatimiz o'qituvchilarining ham "ikkita yakshanba" yoki besh kunlik ish haftasi haqida orzu qilishi havoyilik yoki quyushqondan chiqib ketish bo'lmasa kerak...

Ish haftasining besh yoki to'rt kunlik bo'lishining foydali tomonlariga bir nazar tashlasak.

1. Resurs tejaladi

To'rt yoki besh kunlik ish haftasiga o'tish davlat uchun ham, xususiy sektor uchun ham katta miqdorda mablag' va resurslarning tejallishiga olib keladi. Ma'lumki, O'zbekistonda o'n mingdan oshiq maktab bor, ularda o'rtacha 20 tadan sinfona bo'lsa, 200 mingta sinfona bo'ladi. Endi 200 mingta sinfonani yoritish, isitish uchun ketadigan qancha resurs va mablag' tejallishini tasavvur qilavering. Va buni o'quv yilidagi 34 haftaga ko'paytirsak, qancha resurs tejallishi oydinlashadi. Resurslarning tejallishi kelajak avlod haqiga kamroq chang solishimizni anglatadi.

2. Mehnat unumdorligi oshadi

Xalqimizning "Yaxshi dam, mehnatga hamdam" degan hikmatli maqoli bor. Agar besh kunlik ish haftasiga o'tiladigan bo'lsa, bir kun ko'proq dam olgan o'qituvchi-

lar ish faoliyatida anchagina yuqori mehnat unumdorligiga erishishi tabiiy bir holdir. Dars samaradorligi ertalabki soatlar bilan oxirgi soatlarda, haftaning birinchi yarmidagi o'tilgan dars bilan, haftaning ikkinchi yarmida o'tiladigan darslarda keskin farq qilishini barcha o'qituvchilar juda yaxshi biladi. Ketma-ket ikki kun dam olgan o'qituvchilar mehnat unumdorligining oshishi esa, mamlakat bo'yicha barcha maktablarda dars samaradorligi oshishiga olib keladi.

3. O'qituvchilar sog'ligi yaxshilanadi

Eng ko'p asab buzilishlar, ruhiy zo'riqish, aqliy charchoq kuzatiladigan soha, bu ta'lim sohasi bo'lsa kerak. Besh kunlik ish haftasiga o'tish esa o'qituvchilarning ana shu charchoqlardan xalos bo'lishiga imkon yaratadi. Million so'mlab xarajat qilib davolanish yoki sanatoriyalarga borishga ham hojat qolmasdi.

4. Amalga oshirish imkoniyati

Hozirgi amaldagi o'quv reja bo'yicha, besh kunlik ish haftasiga o'tishda hech qanday muammo bo'lmaydi. Sababi, haftalik o'quv soatlari faqat 9-sinfda 34,5 soat, qolgan sinflarda esa undan ancha kam. Bu esa dars soatlarini hech bir qiyinchiliksiz besh kunlik dars jadvaliga joylashtirish imkonini beradi.

Xullas, besh kunlik ish haftasiga o'tish ta'lim sifatini oshirishga ham xizmat qilgan bo'lardi. Yakshanba dam olish kunini, barcha rejalaridan voz kechib, tik oyoqda, fan olimpiadasining natijasini kutib o'tkazgan ustozning "Ikki yakshanba" haqidagi orzulari ushlagan bo'lardi.

Normamat ESHONQULOV,
Oltinsoy tumanidagi
63-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Kitobxonlik majburiy bo'lishi kerak(mi)?!

Sarlavhani o'qib taajjublangan bo'lsangiz kerak. Fikrimni izohlab beraman. Maktab kutubxonasida faoliyat yuritaman. O'quvchilar bilan faqat tanaffus payti va darsdan keyin muloqot qilaman xolos. Ish jarayonida o'zimning haftalik kun tartibimni joriy etganman.

Ammo haqiqatni aytadigan bo'lsam, bir kun davomida bir sinfdagi barcha o'quvchilar kutubxonaga keladigan bo'lsa ularga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega emasman. Faqatgina sanoqli kitobsevar o'quvchilar kutubxonaga kelishadi va imkon qadar ularga izlagan kitoblarni topib berishga yoki ilk bor kelgan o'quvchilarga o'z qiziqishlaridan kelib chiqib kitob tavsiya etishga harakat qilaman. Ammo qolgan o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning qiziqishlari bilan qiziqishga vaqt ham, imkoniyat ham bo'lmaydi. Tarbiyaviy soat darslarida imkon qadar kutubxonaga jalb etishga harakat qilaman. Ammo bu ham boshqalar darsini bo'lish hisobiga. Kitobxonlik savodxonligi, kitobxonlikni oshirish haqida soatlab gapiriladi-yu, lekin shu kitobxonlikka poydevor bo'luv-

chi, o'quvchilarga ilk bor kitob, kutubxona va undan foydalanish tartiblarini o'rgatuvchi, oliy o'quv yurtlari yoki boshqa turdagi kutubxonalar ko'p sonli kitobxonlarni tayyorlab beruvchi maktab kutubxonalari negadir e'tibordan chetda qolaveradi.

Shu soha vakili sifatida shunday taklif bildirmoqchiman. Maktablarda kitobxonlik soati, kutubxonachi darsi joriy etilsin. Bu darslar to'g'arak ko'rinishida va faqat istovchilar uchun emas, majburiy dars ko'rinishida bo'lishi kerak. Yangi asarlar taqdimoti, kitobxonlik targ'iboti tadbir emas, dars, mashg'ulot, talab, vazifa shaklida bo'lsa. Kitobxonlik darslari va beriladigan vazifalar o'quvchilar va ularning ota-onalari uchun ham qiyinchilik tug'dirmasa kerak. Kitob mutolaasi o'quvchi kelajakda qaysi

kasbni egallashidan qat'i nazar, kerak bo'ladi. Kitobxonlikni xohish darajasidan majburiyat darajasiga olib chiqish vaqti kelmadimikan? O'quvchilar kitobxonlik darsidan yomon baho olmaslik uchun ham birozgina kitob o'qisa, asarlar ustida bahs yuritisa, kutubxonachilik kasbi, kitoblar yaratilish jarayoni haqida kengroq tushunchaga ega bo'lsalar, kitoblarga bo'lgan munosabatlari o'zgarar balki?

Taklifim amalga oshsa maktab kutubxonachilarining nufuzi ham, maoshi ham, mas'uliyat va majburiyati ham oshar, mehnatlari munosil baho-lansa nur ustiga nur bo'lar edi.

Bu bir ijodkor, o'z kasbini sevuvchi va kasbini kelajakda yosh avlod havas bilan tanlashiga, o'sha kunlar kelishiga umid bilan yashayotgan oddiy maktab kutubxonachisining o'y-xayollari, taklifi...

Shahnoza RO'ZIYEVA,
Yunusobod tumanidagi
96-maktab kutubxona mudiri

Sovet davrida ikkita kutubxonaga qatnab kitob o'qirdik. Biri maktabimizda, ikkinchisi qishlog'imiz klubida joylashgandi. Shundanmikan aholi tilida biri bolalar, ikkinchisi kattalar kutubxonasi deb atalar edi. Avval maktabdagi yoshimizga mos kitoblarni, balog'at yoshiga yetgach klub kutubxonasidagi asarlarni o'qib ulg'ayganimiz.

Bugunga kelib klubni bir tadbirkor sotib oldi va, albat, kapitalistik bozor qonuniga asosan kutubxona iqtisodiy manfaat keltirmagani uchun undan voz kechdi(kutubxona hech bir mamlakatda daromad manbasi bo'lgan emas, xato bo'lsa tuzating).

Maktab kutubxonasining ahvoli esa... Ustiga-ustak yangilik tarafdorlari kutubxona nomini ARM(axborot-resurs markazi) tariqasida o'zgartirishdi. "Kompyuter xotirasida elektron kitoblar mujassam bo'ladi", deyishdi bilgichlar. Ularga savolimiz: birinchidan, ARMlarda kompyuterlar yetarli? Ikkinchidan, barcha kompyuterlar buzilmasdan ishlayaptimi? Uchinchidan, har bir maktabda ARM uchun elektr energiya muntazam yetkazilyaptimi? Agar savollarga vijdonan tasdiq javobi berilmasa, kitoblarning originali, ya'ni qog'oz varianti albatta kerak degan sobit xulosa kelib chiqadi!

Bunday payti odatda "axborot texnologiyalariga qarshi ekansan", deya ta'na toshi otiladi. Ularga javobimiz: biz axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga harakat qilyapmiz! Lekin besh qo'l barobar emasligini, qolaversa sharoit hamma joyda ham risoladagidek emasligini unutmasligimiz darkor!

ARM masalasiga boshqa qaytmaslik uchun yana bir fikr: ziyoxonaning nomi ARM emas, KUTUBXONA!!! Agar yangilik tarafdorlariga bu nom "eskilik sarqiti" bo'lib tuyulsa, unda MILLAT ZIYOXONASI, deya atalishi darkor. Kutubxona yoki ziyoxonaning esa o'z axborot-resurs markazi bo'lsin! Shunda adolati bo'ladi. Xorijdan ulgu oladiganlar uchun asos: AQSH, Olmoniya kabi eng rivojlangan davlatlarning muhtasham kutubxonalari bo'lganimizda ularda ARMning kutubxonasi emas, balki kutubxonaning ARMlari borligiga amin bo'ldik.

Rost, sovet davridagi maktab kutubxonalari sovet mafkurasiga xizmat qiladigan kitoblar ham bo'lardi, lekin aksar badiiy adabiyotlarning ezigulik tashishi ham haqiqatligini tan ola bilish chin ziyolining burchidir.

Xo'sh, mafkura uchun demaylik mayli, bugungi kutubxona nega uchinchi Renessans g'oyasi ro'yobi uchun, boshqacha aytganda, millatni ma'naiy yuksaltirish orqali davlatni rivojlantirishga xizmat qilmasligi kerak?

E'tibor berilyapti-ku, desangiz biz ham e'tiroz bildirmaymiz. Yurtimiz rahbari bir necha marta mahallalardagi kutubxonalarni borib ko'rgani oynayi jahonda ko'rsatildi.

Faqat bu ish tizimli ravishda, muntazamlik nazarda tutilgan holda amalga oshirilmayapti! Ma'naviyat masalasi doimiy e'tiborni talab qilishi bugun jamiyatda sodir bo'layotgan noxush voqea-hodisalar ko'payganligidan ma'lum bo'lib qoldi. Buning uchun maktab kutubxonalari kitob hamda ularning elektron nusxalari bilan ham ta'minlashning "Uchinchi Renessans ma'naviy poydevorini yaratish" DAVLAT MILLIY DASTURI qabul qilinishi davr talabidir.

Nega DAVLAT dasturi? Negaki, dasturga asosan har yili davlat budgetidan muntazam mablag' ajratilib, kitob xarid qilish, kutubxonachilar maoshini ko'tarish, kutubxonada aholining barcha qatlami uchun sifatli xizmat ko'rsatish davlat(uchta hokimiyat)ning zimmasi va nazoratida bo'ladi.

Nega MILLIY dastur? Negaki, millatning ziyoli tadbirkorlarini jalb etib, ularning ko'magida kutubxonani qo'shimcha adabiyotlar bilan boyitish ishlari yo'lga qo'yiladi. Muhimi, kitob mutolaasi milliy harakatga aylantiriladi. Bugun kitobxonlikka berilayotgan Prezident sovg'asi, hokim va boshqa muassasalar mukofotlari uchun tanlov, musobaqalar ham ana shu dastur doirasida amalga oshaveradi.

Kutubxonalar kitob bilan ta'minlansa birinchi navbatda, budget mablag'i uchun "kurash" boshlan-

Ta'lim tizimi rahbarlari o'qimasin!

Halokat ostonasidagi millat ziyoxonasi uni asrash uchun davlat milliy dasturi kerak

di. Mablagni taqsimlaydigan vazirliklar, hokimiyat vakillarining (kitobga qiziqmasa-da, uning ma'naviy foyda-zararini tushunmasa-da) "aytganini aytgan" bo'ladi. O'z-o'zidan korrupsion tizim "paydo bo'ladi".

Millat ravnaqiga salbiy ta'sir etadigan bunday holatlarning oldini olish maqsadida barcha vakolat xalq orasida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan, halol, o'z fikriga ega bo'lgan ziyolilar – adiblar, olimlar, madaniyat xodimlaridan iborat nufuzli Hay'atga beriladi. Prezident farmoni asosida tashkil etiladigan jamoatchilik Hay'ati uch oyda yoki yarim yilda bir marta to'planib, chop etilgan, takror aytamiz, biror nashriyotda bosmadan chiqqan kitoblarni kutubxonalarga tavsiya etish uchun o'zaro fikrlashadi va ochiq ovoz berish yo'li bilan tanlanadi. Hay'atning ko'p ovoz olgan xulosasi asosida tavsiya etilgan kitoblar ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib boriladi. Bu tavsiya mablagni "sohiblari" (vazirlik, hokimlik) uchun majburiy bo'ladi va ular qo'shimcha adad chop etish uchun nashriyotlar bilan shartnoma imzolaydilar.

Bunda, birinchidan, barcha maktab kutubxonalari mazmunli kitoblar bilan boyiydi. Ikkinchidan, nashriyotlar o'z mahsuloti sifatini oshirishga harakat qiladi. Uchinchidan, budjetdan ajratiladigan mablag' to'g'ri sarflanadi. Eng asosiysi, tanlangan kitoblar mutolaasi uchinni Renessansni vujudga keltiradigan millat tarbiyasiga xizmat qiladi.

Kutubxonaning axborot-resurs markazi to'liq ishlagan taqdirda ham boshqa bir muammo hal etilmaydi. U ham bo'lsa kutubxonalarning davriy nashrlar bilan ta'minoti masalasidir.

Maktablarda ta'lim-tarbiya sohasini yoritadigan gazeta va jurnallarning zaruratini manqurt rahbargina inkor etadi. "Biz inkor etmaymiz, majburiy obunaga qarshimiz xolos", deyidigan rahbarlarga esa bir e'tirofimiz va bir savolimiz bor: muallimni uchar "matbuot tarqatuvchilar"ga majburiy pul to'lashdan ozod qilganingiz uchun rahmat, lekin unga metodik jihatdan ko'mak beruvchi kutubxonada saqlanadigan nashrlar ta'minoti uchun nima tadbir qo'lladingiz?

Hozir maktablarga ijodkorlar orasidan safarbar etilgan "Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi"lardan birining e'tiroficha, ta'lim muassasasi kutubxonasiga "Yangi O'zbekiston" va "Ishonch" gazetalariga borayotgan ekan. Mazkur gazetalarning zaruratiga shubha yo'q!

"Ma'rifat" va boshqa ta'lim nashrlari qani? Shuning uchun davlatimiz rahbarining xavotiri juda o'rindir:

"Aytgunchi, o'qituvchi o'z ustida ishlashi, bilim va mahoratini oshirishi uchun qo'shimcha metodik yordamni qayerdan oladi? Albatta, shu sohaga oid kitob va qo'llanmalardan, maxsus pedagogik nashrlardan oladi.

Afsuski, biz keyingi yillarda "majburiy obuna" bahonasida ixtiyoriy obunani ham yo'q qildik. Buning natijasida maktab va oliygo'hlarning o'qituvchi va domlari o'zlari uchun zarur bo'lgan gazeta va jurnallardan ajralib qoldi".

Prezident nutqidagi vazifalarni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi, odatda. Lekin aynan matbuot nashrlariga kelganda yumaloq yostiq chora belgilandi. Vazirlar Mahkamasida o'tkazilgan majlis bayonida (2020-yil 12-oktabr) vazirlik va hokimliklarga "obuna uchun mahalliy budjetning orttirilgan qismidan mablag' ajratish" chorasini ko'rish topshirildi. Ommaviy axborot vositalarining xabariga ko'ra, ba'zi tumanlarda mahalliy budjetning orttirilgan qismidan hokim uchun zamonaviy yengil mashina xarid qilgani ma'lum bo'ldi...

Prezident tanqidi ayrim rahbarlarga kor qilmay qoldi chog'i. Ustiga-ustak bor imkoniyatlar ham kunpayakun qilindi. Masalan ta'lim muassasalarining obunasini tashkil etish, uzoq hududlardagi ehtiyojmand

qatlamning qo'shimcha adabiyot va ta'lim nashrlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-yanvardagi "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashning 2002-2003-yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 33-qarorining 5-bandiga asosan "Qishloq joylarda ishlaydigan o'qituvchilarning axborot bilan ta'minlanganligini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi 2002-yil 1-yanvardan boshlab (qishloq joylardagi) umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning kutubxona fondi o'ntagacha turdagi gazeta va jurnallarga, asosan respublika ommaviy axborot vositalariga mahalliy budjet mablagni hisobiga majburiy obuna qilinishini ta'minlash" belgilangan edi.


Bu qaror ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni"ga asosan) 87-sonli Qarori bilan o'z kuchini yo'qotdi.

Bu kabi harakatlar kimdir atay va qasdma-qasd matbuot nashrlari tomiriga bolta urayotganini bildirmaydimi? Buning zararli oqibatini rahbarlar qachon tushunib yetadilar?

Tarixdan bir misol keltiramiz. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligidagi "Samarqand" gazetasida (1913-yil 32-son) "70 millionli Amerika xalqi 22882 jarida va majalla o'qishadi. Biz Turkiston nufusi onlardan 8 da'fa oz bo'lsak-da, ilm borasida 3000 da'fa ozdurmiz. Bu dunyo ahliidan biz turkistonlilar beilm va vahshiy(yovvoyi — H.S.)dirmiz", deydi. Yevroosiyo mamlakatlari, jumladan, Fransiya 8940 ta, Olmoniyada 8050 ta, Angliya va Yaponiyada 6 mingdan ziyod, Italiya 3 mingdan, Shveysariya va Gollandiyada bir yarim mingga yaqin gazeta borligi va ular katta adadlarda chop etilishi ularning rivojlanishiga xizmat qilayotganini ta'kidlaydi. Bu gapning aytilganiga 100 yildan oshdi!

Bugun Behbudiy sanab o'tgan o'sha paytdagi gazeton aholisi bor davlatlar taraqqiyotini qiyoslang. Nashrlarni muntazam o'qish, yangiliklardan boxabar bo'lish, zamon taqozo etgan raqobatga tayyor turish u yurtlarni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqmadimi?! Buni tushunib yetadigan rahbarlar qachon tug'iladi?! Umid bormikan?!

Umidni bolalardan boshlaylik unda! Bola ona qornidan kitob o'qishga tayyor holda tug'ilmaydi. Har qanday kitobni o'qitishdan avval gazeta va jurnalni va raqatlab, kichik-kichik she'r-u hikoya, xabar va mulo-hazalarni o'qitib, mutolaaga, albatta, mustaqil fikrlashga o'rgatiladi. Bu harakatimiz bilan qishloqdagi internet tarmog'iga ulanish u yozda tursin, telefon olishga qurbi yetmaydigan oilalar farzandlariga mutolaa madaniyatini shakllantirgan, o'ylashga, fikrlashga, o'z yo'lini topishga safarbar qilgan bo'lamiz. Bu masalada "Gulxan", "G'uncha" jurnallari, "Tong yulduzi", "Klass" gazetallari va boshqa nashrlarga "bozor talabidan kelib chiqib kunlaringni ko'ringlar", deyish mutlaqo noto'g'ridir. Yana bir bor ta'kidlaymiz: bolalarimizni OAVning barcha turlaridan foydalanishga, fikrlash, baho madaniyatini shakllantirishga, munosabat bildirishga, ularida ishtirok etishga o'rgatishimiz shart. Ijtimoiy tarmoqda qo'yilayotgan masala(post)larga berilayotgan izohlarga e'tibor qarating – fikrlab, muammoga chuqurroq kirish kerak



bo'lgan paytda qisqa va lo'nda haqoratga o'tiladi. Nega? Chunki fikrlash, bahslashish odobi, ko'nikmasi yo'q! Bu sifatlarning bari kitob o'qish orqali tarbiyalanadi.

Qonun chiqaruvchi ("Xalq so'zi"), Ijro hokimiyati ("Yangi O'zbekiston") muassisligidagi gazetalarda juda kerak, inkor etmaymiz. Shu bilan birga aholida siyosiy madaniyatni shakllantirish uchun partiyalar kurashi aks etgan "XXI asr", "Milliy tiklanish", "O'zbekiston ovozi", "Adolat", "Oila va tabiat" kabi partiya nashrlari ham kutubxonalarda bo'lishi o'ta zarur. Ayniqsa, saylov payti har bir siyosiy partiyaning o'ziga xosligi va boshqasidan farqini xalq o'qib bilishi, o'ziga yoqqan partiya safiga kirib hokimiyat uchun kurashishni o'rganishi o'ta muhim masaladir. O'rgatishni o'ziga ep ko'rmanagan hukumatning "xalqimiz siyosiy kurashga tayyor emas", deyishini rivojlanishning bu bosqichida mutlaqo kechirib bo'lmaydi. Aks holda jahon hamjamiyati nazarida kulguga qolishda davom etamiz...

To'g'ri, hayot faqat siyosiy kurashlardan iborat emas. Insonni, avvalo, adabiyot tarbiyalashi kerak. Adabiyot qalbni pok saqlaydi, fikrlashga undaydi. Falsafiy qarashlar esa tafakkurni charxlaydi, dunyoqarashni kengaytiradi. Shu bois "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Kitob dunyosi" gazetalari, "Yoshlik", "Sharq yulduzi", "Jahon adabiyoti", "Tafakkur", "Ma'naviy hayot", "Mushtum" jurnallari har bir ta'lim muassasasi kutubxonalariga bir donadan bo'lsa-da, yetkazilishi kerak.

Tahliliy, dolzarb va tanqidiy maqolalari bilan o'quvchilarga manzur bo'layotgan "Hurriyat", "Jamiyat", "Oila va jamiyat", "Yoshlar ovozi", "Nuroni", "Darakchi" kabi gazetalar ham maktab kutubxonasida bo'lishi dardkor.

(Albatta, bu tanlov muallifniki. Taklifimiz shuki, kutubxona uchun qanday nashrlar tanlanishi ham yuqorida ta'kidlangan Hay'at zimmasida bo'ladi).

Natijada nashrlarning iqtisodiy salohiyati oshadi, ular o'rtasida ijobiy raqobat kuchayadi. Raqobat esa mazmunli va dolzarb maqolalar ko'payishiga sabab bo'ladi. Tanqidiy maqolalardan rahbarlar hushyor tortadi, qadami o'ylab bosadi. Korrupsiya chekinadi, rivojlantirish bo'ladi. Jamiyatdagi munozarali masalalar o'rta tashlanadi, ahvol tushuntiriladi, zarurat tug'ilganda xalq hukumatga, albatta, yordamga keladi!

Millat ziyoxonasini halokatdan asrasak, u millatni taraqqiyotga eltadi!

Oddiy fuqaro va saylovchi sifatida "Uchinchi Renessans ma'naviy poydevorini yaratish" davlat milliy dasturini Oliy Majlis qonun darajasida qabul qilishi, yangi saylanadigan Prezidentning bosh vazifalaridan biri va uning nazoratida bo'lishi shartligi taklifini bildiramiz.

Halim SAIDOV,
filologiya fanlari doktori,
"Mehnat shuhrati" ordeni sovrindori

"Hurriyat" gazetasining 2021-yil 20-oktabr kungi sonidan.

O'qituvchi va o'quvchilar teatrga bepul kiritilishi kerak!

Hafta davomida ikki-uch marotaba teatrga tushishga odatlanganman. Aksariyat hollarda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatriga borishni afzal bilaman. O'tgan haftaning shanbasi edi. Muqimiy teatrida dramaturg Nafas Shodmonov va rejissor Doston Haqberdiyning "Baxshi" musiqali dramasi premiyerasiga tushdim. Odam siyrak. Shuningdek, tomoshabinlarning aksariyati yoshi kattalar. Yonimda o'rta yoshli bir ayol. Undan narida chamasi o'n uch yo o'n to'rt yashar maktab o'quvchisi o'tiribdi. Spektakl boshlanishiga roppa-rosa 20 minut bor.



Yonimdagi opa:

— Talabamisiz? — deya murojaat qildi.

— Ha, talabaman.

— Teatrga tez-tez tushib turasizmi?

— Ishdan bo'sh kunlari tushaman.

Haftada ikki-uch martagacha, — deyman soatimga tikilib. Jimlik. Oradagi jimlikni buzib, ayol so'z qotdi:

— Men ham farzandlarimni navbati bilan haftada bir marta teatrga olib tushaman. O'qituvchiman. Maktabda boshlang'ich sinflarga dars beraman, — deya birozgina jimib yana gap boshladi. — Bugun aksariyat yoshlarimiz fikran yalqov bo'lib qolgan. Buning sababi kitob o'qimaslikdan. Amaliyotdan ma'lumki, bola yoshligida kitob

o'qishni zerikarli ish deb biladi. Kitob o'qishga erinsa, teatrga tushib turish kerak. Ko'rayotgan voqealarini mulohaza qilishga urinadi. O'zicha xulosa qiladi. Afsuski, unday emas. Ko'pchilik ota-onalar bolasiga befarq. Har safar ota-onalar majlisida "bolangizni teatrga olib tushing" deyman. Keyin "Qaysi spektaklga tushdingiz?" deya o'quvchilarimdan so'rayman.

Ota-onalar majlisida mulzam bo'lmisligi uchun ham farzandini teatrga olib tushadigan bo'ldi. Ahmiyatlisi, to'rt yil har xil spektakllarni tomosha qilayotgan o'quvchilarim yuqori sinfda kitob mutolaasiga tutinishi oson kechayapti. Bolaga endi katta bo'lding, kitob o'qish kerak, deyish noto'g'ri.

Uni yoshligidan kitobxonlikka o'rgatib borish kerak. Ushbu yo'lda esa spektakl, devoriy gazetalar chiqarish va bolani zeriktirmaydigan hamda fikrlashga undaydigan tadbirlar qo'l keladi. Bugun ko'pchilik yurtdoshimizning ongida "teatr — hordiq chiqarish maskani" degan yanglish tushuncha paydo bo'lgan. Aslida, teatr dam olib ketadigan joy emas. Aksincha, odamni fikrlashga, yaxshini yomondan ajratishga o'rgatadigan joy. Ammo ko'ryapsizki, riyoziyat chekib yaratilgan asarlarga gurus-gurus tomoshabin kelmayapti. Bu esa fikran yalqov bo'lganimizdandir. Masala yechimi esa yurtdoshlarimizning zohirida emas, botinida yashirilib yotibdi. Ya'ni maktab o'quvchilari va o'qituvchilariga teatrga tushishga imtiyoz yaratish kerak. Shunda ota-ona ham farzandini og'rinmay teatrga olib tusharmidi!? Sababi, hammada vaziyat har xil. Ko'pchilik pulini qizg'anadi. Shuning uchun, ushbu masalani ko'rib chiqish lozim, menimcha. Gapning indallosi, o'tkinchi hoy-u havaslarga berilib, ulug'vor maqsadlar yodimizdan ko'tarilmasligi kerak.

O'qituvchi gapini eshitib xursand bo'ldim. Yoshligimda otam va onam ham biz, ya'ni besh nafar farzandini navbat-navbat teatrga olib tushar edi. O'shanda "nega hammamizni birdan olib bormaysiz?" deb so'radik. Onamning javobi kechagidek yodimda: "Ham-mangni birdan olib tushsak, bitta spektaklni ko'rib kelasilar. Agar beshalangni navbat bilan har xil spektaklga olib tushsak, deyarli beshita spektakl haqida ma'lumotga ega bo'lasan". Haqiqatan ham, shunday edi. Otam va onam bilan qaysimiz birga borsak, kela solib spektakl va voqealar haqida fikrimiz bilan o'rtoqlashardik. Shunda qolgan to'rtalamiz ham biron spektaklni ko'rmasak-da u haqida ma'lumotga ega bo'lganimiz. Beshalamizni birga olib borsa qancha xarajat ketadi? U yog'i bizga qiziq

bo'lmagan. Ammo bugun ulg'ayib, hayotni uncha-muncha tushungandan so'ng anglab yetaymizki, haftada bir marta bo'lsa ham teatrga olib tushish gani-yu, uyga qaytganimizdan so'ng mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashganimizdan juda mamnunmiz. Chunki teatr hayotda qaysi yo'l to'g'ri, qay biri noto'g'riligini ko'rsatib beryapti. Muhimi fikrlashni, har voqeaga nisbatan mulohaza yuritishni o'rgatdi va kitobga oshno qildi. Bugun ota-onalarga "Xo'sh, farzandingizni oxirgi marta qachon teatrga olib tushdingiz?", deya savol bersak, deyarli ko'pidan o'zimiz istagan javobni ololmaymiz. O'qituvchilarning oyli orzu qilganimiz qadar baland emasligi hech birimizga sir emas. Shunday ekan o'qituvchi va boshlang'ich sinf o'quvchilari teatrga tushishga qandaydir imtiyoz joriy etish kerak. Shu o'rinda, ushbu masalada nafaqat o'qituvchilar, balki katta-kichik rahbarlarimiz ham raiyatga ibrat ko'rsatsa, yomon bo'lmadi. Chunki katta arava qayoqqa yursa, kichiklari ham shunga ergashadi. Aqalli oyda bir martagina teatrga vaqt ajratishsa, san'atkorlarga ham ruhiy dalda bo'lar edi. Shuningdek, so'zimiz oxirida yana bir taklifni bermoqchiman. Maktab dasturiga ham sahna san'atiga oid biror-bir predmet kiritish kerak. Uka va singillarimiz ham o'quvchilik cho'g'laridanoq teatrga borish, spektakl tomosha qilish madaniyatini o'zlashtirsa, yomon bo'lmadi. Ammo unutmaylikki, yoshlarni san'atga muhabbat ruhida tarbiyalash bilan ish bitmaydi. Hamma zamonda ham muhimi — ota-onani ma'rifatli etmoq. Chunki tafakkurni o'zgartirishdan tog'ni siljitish oson, degan gap bor. Yoshlar qalbga o'rnatayotgan yangilish qarashlarni ildizi bilan sug'urib tashlash uchun harakat qilmoq'imiz lozim.

Murod RAHMAT

Ta'lim krediti izidan...

Qishloq qiziman. Men uchun poytaxtda o'qish bir vaqtlar katta orzu edi. Bugun talabaman. Katta shaharda o'qish osonmasligini tushunyapman. Kvartira muammosi haqida so'z ochsam, suhbatim tonggacha ham tugamaydi. Ammo aytmoqchi bo'lganim bu emas, o'qishim uchun olmoqchi bo'lgan kredit mojarosi.

2020-yili oilaviy sharoitdan kelib chiqib, kontraktimni kredit olib to'lamoqchi bo'ldim va mahallamizdagi Agrobanka murojaat qildim. Boshliq o'rinbosari 14 foizdan kredit berolmasligini har xil bahonalar bilan tushuntirishga urindi. Men bankning turli nayranglarini hali boshidan o'tkazmagan sodda qizchamasi, gaplariga chippa-chin ishondim. Shunda ham ortga qaytishni istamas, nima qilib bo'lsa-da kredit olishni o'yab turganimda ko'zimga hech ham eshigidan hatlab o'tmagan "Xalq qabulxonasi" binosi ko'rindi. Xalq qabulxonasida o'tirgan amaki yo'l-yo'riq ko'rsatib, kredit olish mumkinligini tushuntirdi. Xursand bo'lib kafil qidira boshladim. Hech bir inson kafil bo'lishga ko'nmadi. Ba'zilarining nomlarida krediti bo'lsa, ba'zilarining "olijanob" erlari ruxsat bermasmush. Hash-pash deguncha, ta'lim kreditini berish muhlati tugadi. Men hanuz kafil topol-

madim. Kontraktimni esa uydagilar qiynalib to'lashiga ko'nishga majbur bo'ldim.

2021-yili yana kontrakt to'lash haqida bosh qotirdim. Bu safar aniq kredit olaman, deb kafilni ertaroq qidira boshladim. Duolarim ijobat bo'libmi, Prezidentimizning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga doir qarori qabul qilindi. Buni ko'rib shirinlik olgan go'dakdek sevindim. Yana qvonarlisi, kafil atalmish farishtam topildi. U hattoki, men o'qishda bo'lganim uchun o'mimga bankka borib kerakli hujjatlarni ham surishtirdi. Hammasi endi hal bo'ladi, deb o'ylaganimda, "ota-onasi yoki vasiyga olgan shaxs davlat idoralarida ishlashi yoki talaba "temir daftar"da turishi kerak", degan gap chiqdi. Oddiy xalqning bolasi kredit olish tugul, bu masalada bankning ostonasiga murojaat qilishni xayoliga ham keltirmasmish. Vaholanki, qaror-da bunday joyi yo'q.

"Ta'lim kreditini rasmiylashtirishda va uning qaytarilishida talabani doimiy daromad manbayiga ega bo'lgan oila a'zolari birgalikda qarz oluvchi sifatida qatnashishiga ruxsat etiladi" deyilgan. "Shart" deb yozilganda boshqa gap edi. Lekin men saxovatli insonimni davlat ishida ishlaydi, men to'lolmasam deb ko'rga has-saday qilib qo'rganman-ku. Bechora kafilim vasiylikka olish o'yida notariusga borgan, ular "biz o'zimizcha berolmaymiz", deya tuman xalq ta'limi bo'limiga borishini aytgan. Bo'limdagilar mening yoshim 18 dan o'tib ketgani, shuning uchun bu masalada yordam berolmasligini tushuntirib hokimiyatga yuborgan. Hokimiyatda ishlaydiganlarning javobini eshitib, kula-kula aqldan ozay dedim. Nimamush, vasiylikka olishi uchun mening aqlim sal kaltaroq bo'lishi kerak ekan. Aqlim zaif bo'lsa, oliy o'quv yurtida o'qirmidim!?

Bu bitta men bilgan bo'lgan hayotiy voqea. Davlat idoralarida o'tirganlar qachongacha oddiy, sodda xalqni yugurtiradi? Quyi lavozim egalari davlat tashkilotlari xalq uchun ishlaydi, degan davlat rahbarining so'zlarini qachongacha, qachongacha teskarisini bajarisharkan?!

Yulduz O'ROLOVA,
O'zJOKU talabasi

Mushtariy muhokamasi.

32 YIL xatolarni to'g'irlashga fursat yetmadimi?

21-oktabr — o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan yana ona tilimiz taqdiri haqida bahs-munozaraga kirishgan davralar ko'paydi. Bir-biriga qarshi tomonlar, birovning fikrini yaxshi tushunmay turib o'zini aytishga shoshilganlar, ko'r-ko'rona bir-birini ma'qullaydiganlar bahslariga guvoh bo'ldik. Til bayrami arafasida telegram tarmog'idagi "Ma'rifat" mushtariylari guruhimizda ham bu boradagi suhbat mazmunli kechdi. Chunki bu guruhga millat ertasini, rivojini o'ylagan ziyolilar jam bo'lgan.

Husan Karvonli:

Asosiy muammolar:

• Ona tili ta'limini takomillash-tirish(darsliklarni grammatikabozlik kishanidan qutqarish, ona tili darsini chet tillari kabi sinfni ikki guruhga bo'lib o'qitish va h.k.).

• O'zbek tilini ilm-fan tiliga, internet tiliga aylantirish(lug'atlar yaratish, o'zbekcha kontent, dasturlarni ko'paytirish, ilmiy tadqiqotlarga mahlag' ajratishni keskin oshirish).

• Lotin alifbosiga to'liq o'tish.

• "Davlat tili haqida" qonunni yangi tahrirda qabul qilish(tijro qilmasayam bo'ladigan moddalarini tahrir qilib, qonunga rioya qilmaganlik uchun javobgarlik belgilash va h.k.).

O'n yillardan buyon "Ma'rifat"da til mavzusini yil-o'n ikki oy yoritib kelamiz. Oxirgi ikki yilda, masalan, 8 ta maxsus son chiqardi. Baxtiyor Mengliyev, Ravshan Jomonov, Inomjon Azimov, Dilorom Yo'ldosheva, Bashorat Bahridinova, Komil Jalilov, Eldor Asanov... Yana ko'plab faol mualliflari-mizning chiqishlaridan so'ng sekin-sekin bo'lsa-da, o'zgarishlar bo'lyapti. Lekin hali muammo ko'p. Juda ko'p. Ularni hal qilish uchun hukumat miqyosida e'tibor kerak. Qog'ozda emas, amalda!

Hukumatda siyosiy iroda kam, sust-kashlik ko'p. Yuqori lavozimlarda o'tirganlar orasida o'ris tilida ta'lim olganlar ko'p, o'zbek tilida fikrlaydiganlar kam. Ta'limga pul kam beriladi, ilmiy tadqiqotlarga pul kam beriladi! Ona tilimizga bo'lgan bunday "e'tibor" bilan qanday qilib uning mavqeyini oshirish mumkin?

Sanobar BERDIYEVA,

Mirzo Ulug'bek tumanidagi 286-maktab o'qituvchisi:

— Bizga saboq bergan ustozlarning aytishicha, avvallari haftaning chorshanba kuni rus tili kuni deyilgan ekan. Shu kuni hamma ruscha gaplashgan, bu boradagi targ'ibot ishlari ham kuchaytirilgan. Natijada rus tili elimizning qon-qoniga singib ketganki, haligacha shu qolipdan chiqish qiyin bo'lyapti. O'zga tilni xalqimiz oniga singdirish uchun shuncha harakat qilinganda nega o'zbek tili mavqeyini oshiradigan biror-bir e'tiborga molik ish bajarilmaydi?! Ba'zi maktablarda ona tili va adabiyot darsliklari ham yetishmaydi. Sinfalarda 35-40 nafar o'quvchiga dars o'tish uchun ba'zan o'qituvchining ovozi oxirgi qatordagi

o'quvchiga yetib bormaydi. Buning ustiga ona tili darslari qisqardi, ammo ba'zi darsliklar haligacha yangilanmadi. Masalan, 6-7-sinfda dars soati 3 soatga tushirildi, darslik esa 5 soatga mo'ljallangan holicha turibdi. Ona tilini qadrlash uchun e'tiqod kerak, aslida. Minbarga chiqib o'zbek tilini ulug'lab, o'zini kuyunchak ko'rsatgan "fidoyi"larning aksariyatini surishtirib ko'rsangiz ko'cha-ko'ya o'zbek tilida gapirishdan tortinishadi, balki o'qilishadi. "Rus tilini bilsa, madaniyatli bo'larkan" deya farzandlarini ruscha ta'lim beriladigan bog'cha-maktablarga berishadi va bundan faxrlanishadi. Hozirgi vaqtda viloyatlardan kelib shaharda ishlayotgan kishilarning ham ko'pchiligi bolasini o'zbek maktabiga bermayotgani achinarli deb o'ylayman. Chunki bola ta'lim-tarbiya jarayonida arosatda qoladi.

Dilrabo NORQULOVA,

Qarshi shahridagi 41-IDUM o'qituvchisi:

— Uyimiz atrofidagi ikkita xususiy bog'cha ochildi. Ingliz va o'zbek tilini yaxshi biladigan, oliygohda 2-kursda o'qiyotgan qizimga yordamchi tarbiyachilik bo'yicha ish qidirib bordik. Ammo ona tilidan ko'ra, rus tilini yaxshi bilish talab qilinarkan.

Dilfuza SUVONOVA,

Yangiyo'l tumanidagi 42-maktab o'qituvchisi:

— 5-sinfdan buyon Bilimlar bellashuvi va olimpiadalarida yaxshi natija ko'rsatib kelayotgan o'quvchim bitiruvchi bo'lganda ingliz tilidan repetitorga boryapti. U shu paytgacha ona tili fani bo'yicha o'qishga kirishga intilardi. Nega fikri o'zgarганиni so'rasam, ingliz tilida imkoniyat ko'p, oddiy o'qituvchi bo'lgan taqdirda ham 30-32 nafar o'quvchiga emas, 14-15 nafar o'quvchiga dars berib ishlashi va turli sertifikatlar bilan maoshiga ustamalar qo'shilishi mumkinligini aytdi.

Yaqinda fan oyilgida ochiq dars o'tkazish uchun ingliz tili o'qituvchilaridan proyektor va monitor so'radim. Ammo ona tili uchun maxsus fan xonasining yo'qligi, ona tili o'qituvchilariga bitta proyektor va monitor berilmaganligidan dilim og'ridi. O'quvchilik davrimda rus tili xonasida magnitofon, lingafonlar bo'lardi. O'shanda ham boshqa ustozlar bunday texnik vositalarga ega bo'lmasdi. Yonimdag xonada ingliz tili o'qituvchilari bolalarga multimedia orqali filmlar qo'yib, ko'ngli



"ONA TILIM - G'URURIM, FAXRIM"

to'lib dars o'tishadi. Men esa qo'shni xonada noutbukni qo'ltiqlab, partalar oralab o'z ko'rgazmalarimni namoyish etaman. Chet tili o'rganish uchun yaratilgan sharoitga qarshiligidim yo'q, til bilgan — el biladi. Ammo o'z tilimizga o'zimiz hurmat bilan qaramasak, uni o'rgatayotgan ustozlarga sharoitlar yaratilmasa, kelajakda nima bo'larkin?

Rahmonxon G'ANIYEV,

Pop tumanidagi 28-maktab o'qituvchisi:

— O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligiga 32 yil to'ldi. Shu yillar davomida tilimizga ko'plab yangi so'zlar kirib keldi. Ba'zi so'zlar esa o'z-o'zidan faolligini yo'qotib talaffuzimizdan tushib qoldi. Tilimizdagi asosiy muammolar esa hanuzgacha o'z yechimini topgani yo'q. Shunday muammolardan biri chet tillardan kirib kelayotgan so'zlarni o'zbek tilining imlo qoidalariga asosan talaffuz qilish va yozishdir. Lekin hozirgacha o'zga til so'zlarini ularning imlo qoidalariga asosan majburan talaffuz qilishimiz tilimizdagi asosiy kamchiligidir. Aslida biz har qanday chet tillardan kirib kelayotgan so'zlarni tilimizning imlo qoidalariga moslashtirib talaffuz qilishimiz va yozishimiz lozim.

Erkinjon YARASHEV,

Zarafshon shahridagi 13-IDUM o'qituvchisi:

— O'tgan davrlarda rus tilini bilgan kishi davlat idoralari, katta-katta lavozimlar, boshqaruv apparatlarida ishlardi. Hujjatlar ham to'liq rus tilida yuritilgan. Q, h, o, g' harflari davlat hujjatlaridan deyarli chiqib ketdi. Ushbu holat esa o'zbekcha ism-shariflari hujjatlariga yozishda chalkashlikni keltirib chiqardi. Ammo o'ttiz yildan oshdiki, bu tushunmovchilik davom etmoqda. "Bir millatni yo'q qilmoqchi bo'lsangiz, uning ustidan atom bombasini tashlashning hojati yo'q. Shunchaki tilini, ma'naviyatini, an'analarni yo'q qiling. Millat o'zligini butkul yo'qotadi" degandi mashhur tarixchi. Eng ayanchlisi, ota-onalar farzandlariga (o'sha davrning eng ulug' kishilari) Mels, Iosif, Marks degan g'alati ismlarni qo'yishdi. Tariximiz butunlay o'zgarib ketdi.

Biz 5-sinfga o'tish vaqtimizda pionerlikka qabul qilinardik. Adashmasam, bu sana 22-aprelda maktab doskalarining tepasida surati osilib turadigan "dohiy"ning tavallud kun sanasida bo'lardi. Xullas, maktabimizda ham shunday tadbir keng nishonlandi. Ustozlarimiz har birimizga rus tilida yodan she'r aytirib, qasamyoy

dimizni eshitgach, bo'ynimizga qizil galstuk taqib qo'ydi. Nima bo'ldi-yu, bir sinfdoshimiz qaysidir dohiyga atalgan she'rni yodlab kelmabdi. Tadbir ko'ngilsizlikka aylandi. Ota-onasining "bola-da, ko'ngli o'ksimasin, sinfdoshlaridan ortda qolmasin, o'zbekcha she'r ayt qolsin" deyshiga qaramay, yaxshi o'qiydigan sinfdoshimiz pionerlikka qabul qilinmadi. Ota-ona "sovetcha tarbiya" berolmaganidan, bola rus tilini bilmaganligidan ancha qiyin ahvolda qoldi. Yillar o'tib, oliygohni bitirdik. Shu sinfdoshimiz hozir filologiya sohasining mutaxassisi, fan nomzodi, uch xil tilda so'zlashadi. "O'z uyingda yasab, o'z tilingda gapirmasang, to'tidan farqing qolmas ekan" deydi bolalikdagi o'sha kunlarni eslaganda u. Ammo "qizil galstuk" voqeasini hanuz unutolmaydi...

Saidaxon MAMAJONO-

VA, Chust tumanidagi 2-maktab o'qituvchisi:

— Ota-onam rus tili o'qituvchisi bo'lishgan. O'z-o'zidan uyimizda ruscha ko'rsatuvlar ko'rilar, muloqotlari ruscha, gazeta-jurnallar ruscha bo'lardi. Bizning ham tilimiz ruslasha boshlagan. Shunda rahmatli onajonim bizni 1-sinfdan o'zbek maktabga berib, "Sen o'zbeksan" deb, faqat o'zbekcha gapirishimizni qat'iy talab qilganlar.

Munavvara QAYUMOVA,

Marg'ilon shahridagi 20-maktab o'qituvchisi:

— Chet tiliga berilgan e'tiborni o'z tilimizga ham qaratsak bo'ladi. Barcha jabhalarda chet tili talabi o'rinda ona tilida mukammal xat-savod bilan insho, diktant yozish, mumtoz shoirlarimiz g'azallaridan o'qish yoki badiiy asarlar yuzasidan tahlil kabi shartlar qo'yilsa bo'lmaydimi? Axir, har qanday mutaxassislarni egallagan kadr o'z ona tilida xatosiz yozishi, fikrlash, milliy adabiyotini, tarixini bilishi kerak emasmi?

Ma'muraxon ESHCHA-

NOVA, Xiva shahridagi 17-IDUM o'qituvchisi:

— Tilga e'tibor faqat tadbirbozlikda ko'rinyapti. Aslida esa tayinli ish ko'rinmaydi. Darsliklar faqat grammatikadan iborat, joylarda lotin alifbosi haligacha amalda emas. O'quvchilar ham tilshunos bo'lishni istamaydi, adabiyotchi bo'lay demaydi. Shukrki, bu yil 15 nafar o'quvchilarning til va adabiyot fanidan o'qishga kirish uchun tayyorgarlikni boshlashdi.

Sahifani Shoira BOYMURODOVA tayyorladi.

Tajriba

Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional — hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. Didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarni amalga oshirishga moslashtirilgan bo'ladi. Intellektual-ijodiy o'yinlar ham ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- «Shaytanat» romanining bosh qahramoni (Asadbek).
- O'zbek taomnomasida eng aziz taom (palov).
- «O'zbekiston» she'riining muallifi (H.Olimjon).
- O'yin nihoyasida ballar yig'ildi va g'oliblar taqdirlandi. Mazkur o'yin bir tomondan o'quvchilarning bilimini namoyon qilib, uning

O'qituvchi ijodidan

MASOFA QANCHA?



Ikki shahar orasi
Yuz ellik kilometr:
Qarshi ikki mashina
Biz tomon kelayotir.
Oltin uch kilometr
Birinchisi yo'l bosdi.
Ikkinchi mashina-chi,
Birinchidan sal oshdi.
Yetmish to'rt kilometr,
Yo'l bosdi, tezlik ancha,
Siz-chi, endi hisoblang,
Masofa qoldi qancha?

QORA CHOY QANCHA?

Oziq-ovqat do'kon—
Mahsulotlarning koni.
Do'kondan ne izlasang,
Bordir albat imkoni.
Sotuvchi xo'p tadbirkor,
Qo'li yengil, so'zga boy.
Bugun besh yuz quti
Keltirdi do'konga choy.
Choylar ko'k va qoradir,
Choylar ichra saradir.
Choyning uch yuzi ko'k,
Qolganlaridir qora.
Qani, qora choy qancha?
Hisobla-chi, Dildora.

Ro'zimurod BOLQIYEV,
Mirzacho'l tumanidagi
10-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bolaga "Oltin toj" kiydiring

O'yinda shaxsning kommunikativ sifatlarini rivojlantirish, intellektual savodxonlik, ziyraklik, qarorlar qabul qilishda zukkolikni rivojlantirish, xalq ijodkorligiga oid bilimlarga ega bo'lish, sinfdagi salohiyatli o'quvchilarni aniqlash va ularni rag'batlantirishga oid maqsad va vazifalar qo'yiladi. Jumladan, "Oltin toj" o'yini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning intellektual darajasini rivojlantirish uchun sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qo'l keladi. O'yin turli mavzularda yetti turda o'tkazilishi mumkin. Har bir turda o'quvchilar bilimi ballar asosida baholanib boradi. Musobaqada sakkiz o'quvchidan iborat ikki guruh qatnashadi. Birinchi turga 5, ikkinchi turga 10, uchinchi turga 15 ball va hokazo tarzda baholana-

di. O'ylash uchun har bir savolga 2-3 sekund vaqt ajratiladi. Noto'g'ri javob berilsa, kuzatuvchi o'quvchilar javob beradi. Har bir to'g'ri javob uchun ball yozilgan jeton topshiriladi. To'rtinchi turdan so'ng musiqali tanaffus tashkil etish mumkin. Yetinchi tur oxirida guruhda qolgan o'quvchilar yiqqan ballarga qarab ular rag'batlantiriladi.

O'yin savollari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Dunyoda eng katta ko'l (Kaspiy dengizi).
- Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti (Nukus).
- O'zbeklarning eng mashhur raqsi nomi ("Andijon polkasi").
- «Sehrli qalpoqcha» romanining muallifi (X.To'xtaboyev).

intellektual salohiyatini aniqlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan bolalarning jamoa bo'lib birlashishi, aqliy tafakkuri shakllanishi, axloqiy xulq-atvori tarkib topishiga ko'mak berdi. Zero, o'quvchi intellekti individ ilmiy salohiyatining rivojlanishiga asos bo'ladi va uning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Rollar o'ynab bo'linganidan so'ng uning muhokamasi boshlanadi. Unda barcha guruh a'zolari ishtirok etadi va ularning har biri o'zi turli rollarga kira olishini sinab ko'radi, ya'ni bunda har bir shaxsning o'zi va boshqalardagi ko'rsatmalarni his qilishiga imkoniyat tug'iladi.

Sharofat HAMIDOVA,
Yashnobod tumanidagi
255-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Tavsiya

Masala yechishni qanday o'rgatamiz?

Boshlang'ich sinf matematika darslarida masofa, tezlik va vaqt bilan bog'liq matnli masalalar yechishni o'rganish jarayoni to'g'ri tashkil etilsa, o'zlashtirilishi to'g'ri shakllanadi.



Avvalo harakatga doir masalalar turi bilan tanishib chiqishimiz kerak. Bunda quyidagilarga e'tibor qarata-

1. Harakatga doir masalalarning "Bajarishni o'rganish" metodlari.
2. Ularning turlari.
3. Bajarish usullari.

1-usul: Masala o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari bo'yicha yechiladi va bu yechish doska va daftarda bir vaqtda bajariladi.

2-usul: Masala sharti o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va yechish rejasini tuziladi. Yechishning o'zi doskaga yozilmaydi, og'zaki aytilmaydi ham, o'quvchilar uni mustaqil bajaradilar.

3-usul: O'qituvchi rahbarligida masala faqat tahlil qilinadi. Yechish rejasini va amaliy o'quvchilar mustaqil bajarishadi.

O'quvchilarda masalalar yechish malakasini tarkib toptirishda ijodiy xarakterdagi mashqlarning ham muhim ahamiyati bor. Bunga quyidagilar kiradi:

- a) Masalani har xil usullar bilan yechish.
- b) Muammoli xarakterdagi masalalarni yechish.
- d) Masalalar tuzish va ularni almashtirishga doir topshiriqlar.

Har bir masala bolalar uchun haqiqiy bilim manbayi bo'lishi kerak. Buning uchun masala sharti orqali o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantiradigan darajada ko'proq ma'lumotlarni olishga yo'naltirish kerak.

Harakatga doir masalalar turlari:

1. Bir jism harakatiga doir masalalar.
2. Uchrashma harakatga doir masalalar.
3. Ikki jismning qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatiga doir masalalar.
4. Ikki jismning bir yo'nalishdagi harakati.

Mashqlarni yecha olish quyidagi ko'nikmalarni talab etadi:

1. Topshiriqni o'qib chiqib, yaxshilab tushunib olish, ya'ni har bir iboraning ma'nosiga yetib, unda tasvirlangan holatni ko'z o'ngida gavdalantira olish.
2. Mashqdagi shart va savol. Ma'lum va noma'lum narsalarni ajratib olish.
3. Berilgan va izlanayotgan ma'lumotlar o'rtasidagi aloqani aniqlay olish, ya'ni mashq matnini tahlil eta bilish va uning natijasi o'laroq, yechish uchun arifmetik amallarni tanlab olish.
4. Mashqning yechimi va javobini yoza olish.

Bu ko'nikmalar muntazam va maqsadli amaliyot jarayonida quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

1. Masalada nima haqida gap boradi?
2. Piyoda (mashina, ayiq, qayiq va h.k.) qanday tezlik bilan harakatlangani ma'lummi?
3. Necha soat yo'l yurgani-chi?

4. Bizdan nimani topish talab qilinyapti?
5. Qaysi amal bilan uni topa olamiz?
6. Biz nimani topdik?
7. Javobni to'liq aytib.

Bunda o'qituvchi tomondan quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

1. Tayyorgarlik ishlari.
2. Mashq matnini tushuntirish.
3. Mashqni tahlil etish, yechish yo'lini izlash va yechish rejasini tuzish.
4. Yechim va javobini yozish.
5. Mashq yechilgandan so'ng uning ustida ishlash.

Mashg'ulotlarning har bir bosqichida o'qituvchi masalaning mazmuni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, mashg'ulotning didaktik va tarbiyaviy hamda o'zga qator omillarni nazarda tutib, yechishning turli xil metodik uslublaridan foydalanadi. Yechish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha metodik uslublarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Masala bo'yicha o'quvchi bilan yuzma-yuz suhbat.
2. Masalani ko'rgazmali vositalar yordamida tushuntirish.
3. Masalalarni taqqoslash;
4. Masalani o'zgartirish, o'zgacha shaklga kiritish.
5. Masalalar shartlarida biror ta'limot yetishmasligi yoki ortiqcha bo'lgan matnini tahlil etish.
6. Masalalarning o'quvchilar tomondan tuzilishi.

7. Masalani boshqa usul bilan yechish.
 8. Masalaning yechimini tekshirish.
- Harakatga doir masalalarni asosan 3 ta shart asosida yechiladi:

1. Qisqa shart.
2. Grafikli yoki chizimli.
3. Jadval asosida.

Yulduz SHOHO'JAYEVA,
Yashnobod tumanidagi
255-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lim muassasalarida

Mamlakat reytingida oldingi o'rinlardamiz!

Yurtimizning har bir qishlog' - u shahariga borsak, avvalo, ko'chalari, uylari, bozorlariga e'tibor beramiz. Nega shunday? Bu odatimizni o'zgartirishimiz kerak, hurmatli vatandosh! Zero, ertaga bizni jahonga tanitadigan, millat sifatida saqlab qoladigan bu – ta'lim. Ta'lim esa bog'cha va maktabdan boshlanadi. Shunday ekan, qayerga mehmonga borsak, o'sha joyning ta'lim maskanlari bilan tanishib, yutuq va kamchiliklarini kuzatsak foydali bo'ladi. Agar shunday qilsangiz, poytaxtdan olis hududlarda o'quvchilarga sifatli ta'lim berayotgan, yutuqlari bisyor maktablarni ko'rasiz va aslida ta'limning yuksalishiga dabdabali bino, zamonaviy sharoitdan ham muhimi o'sha hudud aholisining ilm olishga bo'lgan munosabati ekanligiga amin bo'lasiz. Ushbu sahifamizda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanidagi bir necha ta'lim maskanlari haqida hikoya qilamiz.

Tumandagi 5-IDUM 2000-yili ish boshlagan. Ta'lim maskanida 388 o'quvchiga 30 nafar oliy ma'lumotli o'qituvchi ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Matematika, fizika fanlari chuqurlashtirilib o'qitiladi.

Darslar sifatli tashkil etilishining sababi o'qituvchilar har bir mashg'ulotni ochiq dars sifatida tashkil qilishadi. Har bir o'qituvchining darsi ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, no'anaviy metodlarga tayanib o'tiladi.

Maktab bitiruvchilari oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida yuqori natijalarga erishib kelishadi. 20 yil davomida o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan fan olimpiadasi va "Bilimlar bellashuvi" hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, ko'rik-tanlovlarda ko'plab yutuqlar qo'lga kiritildi.

5-IDUM 2018-yili Qoraqalpog'iston miqyosida maktablar reytingida faxrli birinchi o'rinni egalladi. 2017-2018- va 2018-2019-o'quv yillarida matematika fanidan o'tkazilgan fan olimpiadasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida 7-sinf o'quvchilari Sarvinov Fayzullayeva va Go'zal Xo'janiyozova birinchi va ikkinchi o'rinlarni egalladi.

Shuningdek, 2017-2018-o'quv yilida o'tkazilgan innovatsion olimpiadaning Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida shu maktab o'quvchilari Bekzod Do'stonov fizika fanidan, Sarvinov Fayzullayeva matematikadan, Asror Egamberdiyev biologiyadan 1-o'rinni oldi. 8-sinf o'quvchisi Bekzod Do'stonov esa O'zbekiston Respublikasi bosqichida 2-o'ringa loyiq topildi.

Maktablarda 11 yillik ta'lim qayta joriy qilingandan keyin ilk bitiruvchilarning OTMlarga o'qishga kirish ko'rsatkichi bo'yicha 60 foiz natija ko'rsatishdi. Joriy yilda esa 11-sinfni 27 nafar o'quvchi tugallab, ulardan 23 nafari, ya'ni 85 foizi OTMlarga talabalikka qabul qilindi. Bu ko'rsatkich bilan maktab Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ikkinchi o'ringa ega bo'ldi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining 2019-2020-o'quv yili e'lon qilgan umumta'lim maktablarining milliy reytingida 5-IDUM O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ikkinchi o'rinni va Qoraqalpog'iston bo'yicha esa birinchi o'rinni egalladi.



Bunday yotoqxona o'quvchilar orzusi edi

Tumandagi 13-IDUMI Aqchako'l OFY hududida joylashgan. Maktab-internat 2009-yili tashkil etilgan.

Joriy yil 240 o'quvchiga mo'ljallangan yotoqxona binosining qurilish, ta'mirga muhtoj binoda kapital rekonstruksiya ishlari olib borildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi yagona buyurtmachi "Injining kompaniyasi" ga qarashli "Tuproqqal'a



Maxsus Qurilish" MChJ tomonidan umumiy qiymati 6 272 821 404 so'mlik qurilish obyektida 235 kunlik kapital rekonstruksiya ishlari olib borildi. 30-sentabr kuni Ellikqal'a tumani hokimi S.Avezov boshchiligidagi to'liq kapital rekonstruksiya ishlari olib borilgan, zamonaviy ko'rinishga ega 3 qavatli o'quvchi-yoshlar yotoqxonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Yangi yotoqxona barcha zamonaviy talablarga javob beradi, bino, elektr, tabiiy gaz, issiq va sovuq suv tarmog'iga to'liq ulangan. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat xonalari, kutubxona va mutolaa zallari tashkil etildi. Maktab-internat rahbari A.Rayimov "Yotoqxona bilan ta'minlangani va u yerda yaratilgan qulay shart-sharoitlar o'quvchilarning yanada yaxshi o'qishiga turtki bo'ladi", deya o'z quvonchini bayon qildi.

"Ellikqal'a" so'zining ma'nosini bilasizmi?

Tumandagi 15-maktab ham yuqori ta'lim sifati va o'quvchilarning ko'pdan-ko'p yutuqlari bilan tanilgan maktab. Mazkur maskanda o'quvchilarning iqtidorini boshlang'ich sinflik davridanoq aniqlab, qiziqqan fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, maktabda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, "Tarix tilga kirganda" deb nomlangan tadbirda ishtirok etgan Qoraqalpog'iston xalq o'qituvchisi Samandar ota Ismoilov Ellikqal'a tumani tarixi, uni boshqargan rahbarlar va ular tomonidan amalga oshirilgan xayrli ishlar haqida ko'plab ma'lumotlarni gapirib berdi.

Shu kungacha yoshlar va ko'pgina yoshi ulug' insonlar ham 50 ta qal'asi bo'lgani uchun bu tuman Ellikqal'a deb nomlangan, degan noto'g'ri fikrda edilar. Ustoz bu tuman hududida ilgari 254 ta qal'a va qo'rg'on bo'lganini atoqli rus arxeologi Sergey Tolstov aniqlaganini, shu hududda joylashgan Tuproqqal'a esa Xorazmning qadimiy poytaxtlaridan biri bo'lgani, ammo hozir Beruniy tumanining Aqchako'lga yaqin Turkmanovul deb ataladigan joyida 100 gektar yer qariya Tuproqqal'adan ham ilgari bunyod etilgan Aqchaxon qal'a degan shahar topilgani va u yerda o'zbek, fransuz hamda ingliz arxeologlari 20 yildan ko'proq muddat ichida ilmiy ishlar olib borayotgani hamda bu qal'adan topilgan odamlarning rasmlari 6 metr bo'lgani haqidagi ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni aytib berdi. Shuningdek, o'quvchilar

Ellikqal'a so'zi qozoqcha "jel" – shamolli, shabadali qal'a ma'nosini anglatishini ham bilib oldilar.

Zulxumor POLVONOVA,
tumandagi 15-maktabning ijodiy-madaniy
masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

Jajjilarning jajjigina ustozlari

"Karate-do", ya'ni ona tilimizda "Bo'sh qo'l, bo'sh yo'l" ma'nosini anglatuvchi sport to'garagining qatnashchilari soni bugun 30 nafardan oshdi. Ulardan 10 nafari Qoraqalpog'iston, Berdimurod va Sobirjon esa O'zbekiston chempionlaridir. Ular Ellikqal'a tumani turli burchaklaridan Bo'ston shahridagi 66-IDUM sport zaliga kech soat 18:00 da yig'ilib, 21:00 gacha shug'ullanishadi. Bu dargohga kimdir 5 chaqirim, kimlari 15 chaqirim masofa bosib keladi. Ularni yurtning mard va jasur himoyachisi bo'lishdek sharafli maqsad birlashtirgan. Biz bu yerga borgan kuni egnidagi bejirim oppoqina kiyimi o'ziga juda ham yarashgan 6 yoshli Sardor ham mashg'ulot boshladi.

Taqdir hukmi bilan tuman tug'ruq bo'limi doyasi asli qilchinqilik Sanobar Xudoybergenovaga to'rt nafar farzandni yolg'iz o'zi tarbiyalab voyaga yetkazishdek o'ta sermashaqqat va mas'uliyatli vazifa yuklandi. Onaxon kunni tunga ulab ikki smenada mehnat qildi. Farzandlarini hech narsaga zoriqtirmay, aqli, mehnat-sevar, mehribon etib tarbiyalashga harakat qildi va bugun ana shu zahmat samarasini ko'rish baxtiga muvassar bo'lmoqda. 18 yoshli qizi Bernora tirishqoqligi, intiluvchan va izlanuvchanligi tufayli hozir Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Bo'ston filialining xorijiy tillar fakulteti birinchi kurs talabasi.

Bernoraning ta'kidlashicha, jajjigina qizaloqlik payti bir kuni u kattalar tomonidan nohaq kaltaklangan. Murg'ak qalb og'ir jarohat olgan va bu qizchada o'zini o'zi himoya qilish istagini yuzaga keltirgan. Karate-do bilan shug'ullanib, to shu soha murabbiyi bo'lmaguncha beruniylik ustozlari O'ktam Abduraimovdan soha sir-larini mukammal o'rgangan.

U qora belbog' sohibasi. Tengqurlari orasida 3 marta Qoraqalpog'iston, 2 karra O'zbekiston chempioni 2019-yili O'zbekistonda "Yilning eng yaxshi ayoli" tanlovi g'olibi bo'ldi.

Maqsadimiz ulkan, shijoatimiz so'nmasdir!

Hozir Ellikqal'a tumanida 72 ta ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. Shundan 7 tasi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi va bittasi "Barkamol avlod" bolalar markazidir.

2021-yili Investitsiya dasturi asosida tumandagi 37-maktabga qo'shimcha 276 o'rinli yangi bino qurish uchun mahalliy budget mablag'laridan 4 milliard 700 million so'm ajratilib, qurilish ishlari boshlab yuborildi. Shuningdek, joriy yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturi doirasida 7-, 19-, 20-, 25-maktablar Qoraqalpog'iston, 11 ta maktab esa tuman mahalliy budjeti hisobidan kapital ta'mirlandi.

28 ta maktabga joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun 2 milliard 286 million so'm mablag' ajratildi.

Rag'bat har qanday jamoani, o'qituvchi va murabbiyni ruhlantiradi, olg'a qadam tashlashga undaydi. Joriy yilning o'zida 20 nafarga yaqin pedagoglar mehnati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Xalq ta'limi vazirlilari, 50 dan ortig'i esa tuman hokimligi tomonidan munosib taqdirlandi.

Ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, o'quvchilarning xalqaro fan olimpiadalari, tanlov va sport musobaqalarida ishtirok etishi va g'olib bo'lishiga erishish birlamchi maqsadimizdir.

Ahmadjon NURUMBETOV,
Ellikqal'a tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri

Sahifani O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi
a'zosi Muhammadsobir AYTIMOV tayyorladi.

Esse



Kuz yozga alla aytdi. Qish esa kuzga allasini xirgoyi qilayotir. Bog'lar to'h almashtirar: nigohlar yer-u osmon tutashib ketgan joygacha bir rangga bo'yalgandek. Sarg'imir choponlar yelkalarga ilingan, allaqachonlar. Xirmondan ko'ngli to'lgan bobo qo'llarini duoga ochadi: yurtga tinch-totuvlik, elga hurlik, to'kinlik, yoshlarimizga bekam baxt-u saodat, ilm-u ma'rifat so'rab yuzlariga fотиha tortadi:
"Qo'lingdan kitobing tushmasin, boshingdan toleying ketmasin..."

Hosil yig'masdan havo aynisa, yomg'ir yuraginga yoqquday bo'ladi, deydingan momoning chehrasiga quyosh ko'chgandek:

– Ilmning karomati, o'qiganning sharofati shu-da...

Ota o'g'li tug'ilganda ekan ko'chaga farzandining bo'yini qiyoslaydi: osmon bilan yer.

– Sen aqling bilan hamma narsadan baland bo'lishing, dunyoni lol qoldirishing kerak! – ota qat'iyat, ishonch bilan aytadi. – Buning uchun o'qishing, til bilishing, bilganda ham o'zbekning bolasi ekanligingni jahonga ko'rsatib qo'yishing kerak.

Ona oshxona derazasini ochib, kuz quyoshining taftidan rohatlanadi. Qizaloq yugurgancha deraza tagiga turib chapak chaladi:

– Ur-re-ye, boshimni qarang tegdi. Kaap-katta bo'pman-a?..

Shunda osmonni chug'ur-chug'ur ovozi tutadi...

– Aytg-chi, oyi, qushlar buncha ko'p, nima deyapti ular?

Qizaloqning savolidan ona sergaklanadi:

– Issiqsevar qushlar to'planishib issiq o'lkalarga yo'l oladi, qizim. Nima deyayotganini bilmasam.

– Iya, – qizaloqning ko'zi katta-katta ochiladi. – O'yilar ham bilmaydimi-a? Men oyi bo'lsam, hamma narsani bilaman. Ko'p kitoblari o'qiyman, o'qiyveraman, o'qiyveraman. – Qiz

biroz jiddiy tortdi. – Bechora qushlar u joylarga yetguncha charchab ketmas-mikina-a?

Yomg'ir shivalaydi. Ikki o'rtoq romli ayvonning dahlizida in yasaydi, hozirgina ishlari tugab qoladi.

– Ustoz yordam bermaganida hecham bitirilmadik-da. Ana endi akam kelsa, inni o'rnatib beradi, – bolalar o'z ishlari davom etadi.

Opa esa qaldirg'ochlar bola ochib, so'ng hammasi uchirma bo'lgan bolaxonalni uyning eshiklarini zichlab yopadi:

– Qaldirg'ochlar bahorda yana qaytib keladi. Necha yilki, qancha qaldirg'ochlar ko'z ochadi bunda... Qayta-qayta kelaveradi ular. Bahorda sal kechiksa, kelishini sog'inib qolamiz. Oilamizning qadrdoniga aylangan ular.

Har daqiqa bo'yi bilan o'yi ulg'ayotgan aziz bolajon! Har biringiz olamlarga tengsiz orzulardan qanot boylaganingiz aniq. Katta maqsadlar bilan ulug' niyatlarga yetadigan eng yaqin yo'l, eng mustahkam ko'priklari izlayotir-siz!

U – kitob!

U seni kelajakka eltuvchi pillapoyalardan orzular shohsupasiga yetaklovchi maktublarga o'xshaydi goho. Sen uni o'qiyman, izlanasan, kashf etasan – katta yo'lga chiqasan.

Qo'llaringni osmonga uzatasan – yetadi!

Qo'llaringni oftobga uzatasan – yetadi!

KUZNING SUVRATI

Hayajonlarim xayolga tutqich bermaydi. Dunyoga sig'aman-u, o'zimga sig'mayman. Xayolim semurg' qushlar yanglig' parvoz qiladi: ko'zlangan manzilin ixtiyor etadi... yetdim, deganda yo'l hali olisligini angelaydi. Mening musavvir ko'nglim shunday! Qo'limga qalam tutgan onlarimdan rang axtaraman – uning bo'yog'larda emas, holatlarda sirli shivirlashini istayman. Oddiygina muhrlagim keladi: samo-yu zaminning bag'ri birlashib, oltin rangga aylanadi. Bunda sehgarning mo'jizaviy tayog'chasi-da hech.

Dunyoning eng mo'ysafid ertakchisi cho'pchak aytayotgandek: chirt-chirt uzilayotgan yaproqlar kuzning ogohlantiruvchi ilk maktublari. Junjiktiruvchi shamollar kutilgan va yo'llangan xabarnoma. Tomchilar zamin orziqib peshvoz chiqqan obi zam-zam...

Poyoni adoqsiz kengliklarga razm solaman: shamol musiqasiga raqs tushayotgan yaproqlar sadosi, saslari alla aytayotir go'yo. Kuzning azaliy qo'shiqlarining

abadiy naqoratidek... Ko'zlariga muhrlangan qo'shiqlar bu! Unda shamolning etaklarida yomg'irlar bolalaydi... shamolning etaklarida qo'l ushlagan yaproqlar aylanadi, aylanaveradi – bolalikning doira o'yinidek adoqsiz. Bebosh yellariga dosh berolmagan yaproqlar o'mbaloq oshadi – qishloqning bolasidek.

Kuzning suvratini chizmoqchi bo'lamen... Izlaganim izlariga asta bo'yoq tortaman, Bobom ming yillik nasihatini takrorlaydi:

– Kuz qishning darakchisi, bolam. Daraxtning barglari pastidan to'kilsa, qish iliq keladi, tepasidan to'kilsa, sovuqqa tadorik ko'rish kerak.

Buvim ham anoyi emas, kecha aytgani yodida bo'lsa-da, yana eslatib qo'yadi:

– Qushlar past va yoyilib uchsa, qish iliq o'tadi...

Kuzning suvratini chizmoqchi bo'lamen...

Kechki payt turgan shamoldan Onam derazalarni asta ochadi: – Yomg'irning



OSMONDAGI QUSHLAR UYASI

Uzoqdan qushlarning tanish ovozi eshitiladi. Keyin bu ovoz asta yaqinlashadi. Qushlar galasi osmonni to'ldiradi. Bolalar deraza oynalariga yopishib, chapak chaladi. Ularni kuzatadi: qushlar goh aylana bo'lib qanot qoqadi, goh bir-birlariga yo'l berayotganga o'xshaydi. Qarab tursangiz, ochilib-yopilayotgan gul shaklini oladi. Bir zumda tizilishib parvozda davom etadi. Bolalar esa qushlardan ko'zini uzmay onasini savolga tutadi:

- Qushlar raqsga tushadimi?
- Shunaqa bo'lsa kerak, – ona miyig'ida jilmayib qo'yadi.
- Unda qushlar qo'shiqsiz o'ynaydimi-a?..
- O'zi qo'shiq aytib, o'zi o'ynaydi.
- Unda kim chapak chaladi?
- Shamol bo'lsa kerak-da.
- Bizlar ham qarsak chalsak bo'ladi?
- Albatta, – ona derazaning oynasini asta yopadi. – Sal nariroq turinglar, shamollab qolasizlar.
- Qushlar shamollab qolmaydimi?
- Ular o'rganib ketishgan, osmon o'zlarining uyi-da, bolam.
- Osmonda qushlarning uyasi bormi?
- Uyiga uchadigan yo'l bor, arg'imchoq solib uchaveradi.
- Arg'imchoq biznikiga o'xshamaganmi, nimaga ko'rinmaydi?
- Ularning arg'imchoq'i o'zi bilan, bolam.
- Men qushlarning arg'imchoq'iniyam, o'ziniyam yaxshi ko'raman. Ular haqida ertak eshitgim kelyapti.

– Ertakni-ku bilaman. Ammo senga o'zim ko'rgan, bilgan voqeani aytib bera qolay.

– Bo'pti...

– Qushlar judayam aqlli bo'ladi. Yaxshilikni, mehnatni unutmaydi. Yoshligimda tog'ang oppoq kabutarlar boqardi. Biz ularni paypoqli kabutarlar derdik. Hovlimizning bir chekkasidagi ajratilgan yerga don separedik. Ular darrov paydo bo'lardi. Uchib kelardi-da, parvo qil-may donlashga tushardi. Ba'zan tog'angning qo'lidagi donni yeb, keyin yelkasiga chiqib g'urillardi.

– Erkalanarkan-da, rahmat aytganimidi bu, – qizaloq shoshgancha davom etadi. – Bizlar ham rahmat aytamiz-ku...

– Ha... qaldirg'ochlar esa bola ochgan uyasini hech qachon unut-maskan. Laylak, turna, oqqush haqida eshitgansan-a?

– Eshitganman ozgina... Lekin sizga o'xshab o'zimizning ko'zlarim bilan ko'rgim kelyapti. Ular ertakdan ham yaxshi ekan.

– Unda har kuni tabiatni kuzat. Ko'rganlaringni yozib borish uchun daftar tut.

Qizaloq sevinib ketdi. Sumkasidan yangi daftar oldi. Muqova ustidan birinchi qatorda "Tabiat kundaligi" deb yozib qo'ydi. Quloqlari ostida qushlarning arg'imchoq solib uchayotgan ovozi jarangladi.

hidi kelyapti, joningga huzur bag'ishlaydigan...

Tongda Otam romli ayvonning oynalarini ochib yuboradi: yomg'irning salqini "gup" etib urilsa-da, junjiktirmaydi. Rohatbaxsh epkin esadi...

Kuzning suvratini chizmoqchi bo'lamen...

Yomg'irpo'sh kiyib, soyabon tutgan bolakay kavushchasi suvga to'lganidan bexabar sakraydi: – Kimning og'ziga yeti tomchi yomg'ir tushsa, sehgarga aylanarmish...

Ko'p qavatli uylarning erka nabirasi oyoqlari orasidan boshini chiqarib "yo'l ko'radi". Bobo-yu buvining quvonchi qo'sh bo'ladi. Nabirasini yanayam suyib qo'yadi:

– Bugun qishloqdan mehmon keladiganga o'xshaydi, ko'zlariga tumor bo'lay, bolam...

Chol-u kampirning gaplari tugamasdan eshik qo'ng'irog'i jiringlaydi. Avval ostonada olma, anor, yomg'og'-u qovoqlar solingan savatlar, keyin mehmonlar ko'rinadi. Xonani to'kin bog'larning isi tutadi.

Kuzning suvratini chizmoqchi bo'lamen...

KUZ XAT YOZADI

Kuz xat yozadi. Siz uning xatini o'qiganmisiz? Kuzning ertagini-chi, tinglaganmisiz?.. Uni o'qimoqchi bo'lsangiz, yomg'ir shiviriga quloq tuting... Tuman qop... keyin asta... ivalagan sas eshitilsa, demak kuz xatining konverti ochilayotgani. Quloq tuting.

Kuz xat yozadi. Unda sabo bog'lar isini olib yeladi. To'kin mevalarning ifori dimog'ingizga uriladi. Taglariga to'kilgan olma, anorlar yerga quloq tutayotganga o'xshaydi.

Oltin rang fasl maktub yo'llaydi. Zangor libosli sehgargar bog'larga tashrif buyuradi: yelkasidagi qopi ham, hassasi ham zangor. Hil-hil har meva bir bog'ning bo'yini ko'rsatadi. Xirmonga baraka kiradi.

Kuzning xati bobodehqonga yetib boradi birinchi bo'lib. U qo'lida ushlagan maktubni ochmasa-da, nimalar yozilganini yod biladi.

– Kuz – mening bobom. Men donishmand bobo faslimni yaxshi ko'raman, – deydi qizaloq. – Bobom, kuz – baraka, bol fasli, mehnat qilgan rohatini topadi, deb izohlaydilar. Yana ham yaxshi ko'rib ketaman bu fasl-ni. Bobom ham donishmand. Demak, ular o'rtoq ekan-da, o'ylab qol... "Salom, kuz", deb quchoq'imni ochaman. Baxmal tusli barglar yog'iladi.

Kuz xat yozadi. Barglar baxshiga aylanadi. Uning shitiri va shivirini hech kim – musavvir ham, usta sozanda ham o'xshatolmaydi. Kuz ertagini boshlaydi bunda.

Kutilmaganda achimsizgi is dimoqqa uriladi. Yaqin atrofdan tutun o'rmlayotgani ko'zga tashlanadi. Keyin xazonlarning ingragani eshitiladi. Bunda kuzning xati g'ijimlanib, bir siqimga aylanadi.

– Tezda o'chirish kerak, tabiatni avaylasak, u bizni asraydi, – atrofdagi ovozlardan kuzning kaftidagi xatga qanot bitadi.

Nomalar yo'l izlaydi – xazonlar ham suzg'ichdan o'tigandek. Ariqdagi suvlarning tubi ko'rinadi. Bulog'lardan bug' ko'tariladi.

Berkinmachog' o'yini boshlanadi, quyosh ko'p berkinib, bulut o'yg'a toladi. Yomg'ir yog'adi: go'yo yerga paq-paq etib pufakchalar uriladi-yu, arazlagan boladek yotib oladi. Uni qidiraman, topolmayman. Ushlagim keladi. Qo'llarim muallaq qoladi.

Halinchak yolg'u uchayotgan qushlarning chug'uri tutadi. Kuz xat yozadi. Uni o'qib ulgurmasimizdan kumush qishning xat yozishga o'tirganidan xabar keladi.

KUZDAN KELGAN XAT

Osmonni bulut qopladi. Keyin g'uvillagan ovoz eshitildi. Daraxtlar tebranib, chayqalgandek bo'ldi. Darvozani kimdir qoqdi. "Hamma uyda. Kim bo'lishi mumkin?" Quloq solsam, yana taqilladi. Eshikni ochsam, izg'irin shamol yelkasiga pochta xaltani osib olgan. "Sizga xat bor", deya kaftimdek savatcha olib menga uzatdi. Hayron qoldim, qopqog'i ham antiqa.

Bu kimdanligini so'ramoqchi edim, u "zuvv" etib ko'zdan yo'qoldi. Uni ochmoqchi edim, ochilmadi. "Ichida nima bor ekan?" Qulog'imga tutdim: yomg'irning ovozi, keyin tomchilarning sharga aylanib yorilishi eshitildi. Ko'zimni yumib, uni qulog'imga qattiqroq bosdim: "Endi o'sha yomg'irning tagida men ham soyabonsiz yurardim".

Kutilmaganda qopqoq ochilib ketdi. Uyni olma-yu behilarning hidi tutdi. Savatdagi mevachalarni qo'limga olsam, kaftimga sig'may qoldi... Nima qilishni bilmasdim. Deraza oynasidan tashqariga qaradim: osmondan to'la zarg'aldoq barg yog'ardi. Bu – bargyomg'ir edi. Yo'q, yo'q, barglar uchardi. Ularning qanoti bor edi, rost. Qushlardan ham chiroyli qanot qoqardi... Ular yomg'irdan ham berkinmas, shamoldan ham qo'rqmas edi. Yer-u ko'ni o'z uyiga aylantirib olgan edi.

Endi bildim, bu kuzning xati edi. Men unga javob yozmoqchi bo'lib o'rnimdan turganimde, momoqaldiroq gumburladi. Ko'zim katta-katta ochilib ketdi...

Kichkintoy do'stlarim! Bu mening tushimmi yo o'ngim, bilmay qoldim.

KUZ KEMASI

Kuz izg'irini esdi. Shamol qishning hidini olib keldi. "Chirt-chirt" uzilgan yaproqlar zaminning ko'rparasiga aylanadi. Oltinrang barglarning quloqlari yerga yopishib qolgandek – qishning qadam olishlari eshitiladi. Barglar qanot yozib parvozga shaylanadi go'yo. Unga qo'shilib hamma narsa uchadi: qushlar, bulutlar. Ular qo'l ushlagan bolalarga havas qilganga o'xshaydi. Gir aylanadi. Ohista odimlayotgan tipratikan bir dumalab barglardan soyabon yasaydi. O'zining qilmishidan quvonib bir oyoq'ida aylanadi-da, atrofga qarab yo'lida davom etadi. Bog'larning isini ulashguvchi shabboda manziliga yetib, hordiqqa cho'ziladi. Yer-u ko'ni o'ziniki qilgan barg ariq qirg'oqlariga uriladi. Suvga boshini qo'yadi horigan yaproqlar. Ular suhbat quradi, sirlashadi. Mo'jiza ro'y beradi. Kuzning anhorlari tiniqlashib ketadi. Quyoshning aksimi deb osmonga termulaman: yo'q! Quyonga, filga, olmaxonga – har xil gullarga o'xshagan bulutlar kezadi. Zum o'tmay "tiq-tuq" ovoz eshitiladi. Yomg'ir tomchilaydi. Anhor-dagi baliqlar ham shoshib qolgandek yuguradi. Qiziq-da, baliqchalar shamollab qolmasmikan-a? Quyosh nimaga berkinib oldiykin? Termulib tursam, ipga osilib olgan yomg'ir anhor yuzida pufakchalar yasab, ovoz berardi. Quloq tutaman... buvim meni chaqirayotgandek bo'ladi. Shoshib yo'lga tushaman. Yomg'ir mendan ham tezroq yugurayotgandek. Ularning oyisi, buvisi o'rgatnasmikan, sekinroq yog', deb. Hamma yomg'irni yaxshi ko'radi. Men ham. Lekin soyabon tutib oladi ular – men ham. Bog' oralay uyga burilaman. Yer-u osmon o'rta-sida kimdir ertak to'qiyotgandek. Ostona hatlab uyga kiraman. Buvim ro'molining uchlarini bilan yuzimni artadi.

– Nimaga yashil barglar sarg'ayadi? – buvimni savolga tutaman. – Kuzni sog'ingan barglar sarg'ayib ketadimi?

– Ha, bolam. Sog'inch degani shunaqa.

– Yomg'irning qulog'i bormi?

– Albatta.

– Unda qulog'iga baqirib aytgim.

– Nimaga endi baqirib?!

– U juda shoshib yog'yapti, sekin gapirsangiz eshitmaydi.

Buvim miyig'ida kulib qo'yadi:

– Aytginki, u yo'laklarga yog'masin-da. Tufim ho'l bo'lsa, shamollab qolaman. Isitmalasam, oyim xafa bo'ladi.

Oshxona tarafdan oyim kelib, meni bag'riga bosdi. Keyin oyog'imni kaftlari orasiga olib isitdi.

– Kuz ham senga o'xshagan erka-toy-da, bolam, – dedi oyim. – Osmon-u falak kuzning kemasiga aylangan.

Rosti, uncha tushunmadim. Oyimga savol bergim kelmadi. Endi men kattaman. O'zim bilib olishim kerak. To'g'rimi?

Dilfuza SHOMALIKOVA



KUZ ERTAGI
Zarg'aldoq maktublar

Osmonni to'ldirib maktublar yog'adi: sarg'ish, qizg'ish, shafaqrang, zarg'aldoq barglar shamolning belanchagidan tushib qolayotgandek. Kuzbobo yer-u ko'ni kaftiga olgan sehgarga o'xshaydi: yaproqlarning har birini erinmasdan ranglaydi, keyin ularga qanot berib, parvozga yo'llaydi. Safarga otlangan kuz kemasi yo'lida davom etadi. Kechagina bog'lab qo'yilgan shamol ipini uzadi. Kema chayqaladi. Barglarning boshi "so'q-so'q" bo'ladi. Shunda yaproqlarning shiviri quloqqa chalinadi. Haqiqiy kuz boshlanadi.

Yo'lakda o'ynayotgan bolakaylar barglarni do'ppi qilib boshiga yopishadi. Qo'l ushlab "chayqatishadi". Endi ular daraxtga o'xshagisi keladi. Chang-tushib, po'chog'idan ajraladi. Ah-yon-ahyonda ko'rindigan olmaxonlar daraxt shoxlarida qushdek yengil yuguradi. Qo'lidagi o'ljasini mahkam tutib, atrofga bir qaraydi-yu, g'oyib bo'ladi... Kichkinagina ko'ringan maydoncha o'rmonga aylanib qolgandek tuyuladi. Kutilmaganda osmondan barglar yomg'iri to'kilgandek bo'ldi. Derazadan qo'llarimni chiqarib, ularni tutishga shaylandim. Shunda bir barg qo'limga ilindi. Quvonib ketdim. Qarasam, unga ikki chumoli yopishib olgandi. "Chumolining soyaboni", dedim ovozimni balandlatib. Yoki chumolilar bargni kema qilishmoqchi bo'lganmikan? Endi topdim, ular parashyut qilib sakramoqchi bo'lishgan! Atrofga qarayman: yomg'ir ham tabassum qilgandek, shamolning ko'zlari chaqnagandek. Ariqdagi suvlar ham jim. Yomg'ir tinishi bilan uzoqlardan qushlarning chug'ur-chug'uri eshitildi. Issiq o'lkalarga yo'l olgan qushlarning xayrlashuv xabari edi bu ovoz.

Bu kuzning bir kunlik ertagi edi. Unga zamin-u osmon quloq tutardi...

– Jon bolam, yomg'irda shalabbo bo'lasan, soyaboningni tutib olgin, – deydi.

– Yo'o'o'q, – bola soyabonini kurtkasining ichiga yashiradi. – Yomg'irda ivib kettsa, soyabon shamollab qoladi.

Ta'kid

Sinf rahbari sifatida majlis qilganimda ota-onalardan ko'pincha bir xil iltimos kelib tushadi: "Bolamning joyini o'zgartiring". Ular farzandlari oldingi partalarda o'tirishini xohlashadi.

Iltimos, joyini o'zgartiring!

Haqli savol tug'iladi. Xo'sh, aslida, o'quvchilar sinf partalariga qanday joylashtirilishi kerak? Axir, ota-onalar aytgandek, bolalarning hammasini ham birinchi partaga o'tqizib bo'lmaydi-ku. O'qituvchi belgilangan me'yorlarga ko'ra yoki o'quvchining aqliy va jismoniy holatini hisobga olgan holda joylashtiradi. Bunda bolaning bo'yi, ko'rish darajasi inobatga olinadi. Qolaversa, qatorlar va o'quvchilar joyi har hafta almashtiriladi, sababi o'quvchi uzoq muddat sinf doskasiga bir nuqtadan qarayversa, unda ko'z bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga fanlarni pastroq o'zlashtiradigan o'quvchilarni sinfdagi iqtidorli o'quvchilar bilan birlashtirish lozim. Ko'rinish turibdiki, bu ishda sinf rahbaridan zukkolik va mahorat talab etiladi.

Ota-onalarning farzandlari yaxshi o'qishi uchun oldingi partada o'tirishini so'rashi biroz noo'rin. Agar o'quvchi sidqidildan o'qishga intilsa, unga joy va sharoitning farqi yo'q. Negaki, ba'zi qashshoq mamlakatlarning partasiz, hatto doskasiz sinflaridan ham butun dunyoga mashhur olimlar, yozuvchilar, siyosat arboblari, hattoki davlat rahbarlari ham yetishib chiqqan. Shunday ekan ota-onalardan bu masalada sinf rahbari bajarayotgan ishlarni ma'qul ko'rib, uyda farzandlari bilan ko'proq shug'ullanishlarini so'ragan bo'lar edim. Agar bola maktabda olgan bilimni uyda yana bir karra takrorlasa, hech qachon yodidan chiqmaydi.

Avtobus chiptachilari "Avtobusning oldi eshigi boradigan manzilga orqa eshigi ham boradi" deganlaridek, sinfdagi old va orqa partalardagi o'quvchilarga o'qituvchi bir xil bilim beradi. Bu bilimni puxta egallab olish esa o'quvchining o'ziga bog'liq.

Dilnoza NURMATOVA,
Yashnobod tumanidagi
216-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Eng katta yaxshilik

Odamlar orasida mehr-muruvvat bor ekan hayot farovon, yo'llarimiz ravon bo'lib boraveradi. Mehr-muruvvatni, avvalo, kimga ko'rsatish kerak?! Davlatimiz tomonidan belgilangan bir ustuvor vazifa bor: yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ulardagi bor imkoniyatlarni ishga solish. Zero, jonajon O'zbekistonimizning ertaga jahon hamjamiyatidan qanday joy olishi, qanday nufuzga ega bo'lishi bugun yoshlarga berayotgan tarbiyamiz, ko'rsatayotgan g'amxo'rligimizga bog'liq.

Hikoyamiz qahramoni Gulnora Nurmetova ham ko'pdan beri shu haqda o'ylab kelardi. Qanday qilsa, yoshlarni ko'proq ilm-hunarga jalb etish, zamon talablariga muvofiq mutaxassislar tayyorlab, ular bandligini ta'minlash mumkin?! XXI asr - ilg'or texnologiyalar asri. Demak, yoshlarimiz yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lishi, dunyodagi hech bir tengdoshidan kam bo'lmashligi lozim. Shu maqsad zahirida kompyuter savodxonligiga ixtisoslashgan "Let's Animate" maktabi tashkil qilindi-yu, Gulnora opa yeng shahar ishga kirishdi. To'g'ri, hozir kompyuter sohasiga o'qitadigan markazlar, to'garak va maxsus kurslar har qadamda uchraydi. Raqobat maydonida g'olib kelish uchun yoshlarni shunday tarbiyalash kerakki, ular bu sohaga chuqurroq kirib borsin, munosib daromad olishi uchun imkoniyat ehtiklari ochilsin.

Kompyuterlar olamiga kirib borganing sari uning biri-biridan sirli, g'aroyib qirralari o'ziga chorlayverer ekan. Ayniqsa, bugungi zamon yoshlarining bu aqlii texnikalarga qiziqishi yuqori. Shularni inobatga olib, Gulnora opa yangi kompyuter grafikasiga ixtisoslashgan maktabga eng tajribali ustozlarni jamladi. Ularning maslahati bilan bir emas, 9 yo'nalish bo'yicha kasbga o'rgatish ishlari boshlab yuborildi. Darslarni ham yangicha uslubda, nazariya va amaliyot uyg'unligida olib borish joriy etildi. Bilim maskanida tayyorlanayotgan mutaxassislar salohiyati qo'shni davlatlarni ham qiziqitirib qo'ydi. Bugun mazkur maktabdan hayotga yo'llanma olgan mingdan ortiq yoshlar nafaqat O'zbekiston, Markaziy Osiyoning bir qancha mamlakatlarida ham soha rivojiga hissa qo'shib, o'qish olishmoqda. Gulnora opa o'z maktabidan uchirma bo'lgan zehni yoshlar yutuqlaridan quvonib turgan bir pallada, 10-sentabr kuni Prezidentimiz axborot texnologiyalari sohasida salohiyatli kadrlar tayyorlash va iqtidorli yoshlar bilan tizimli ishlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazdi. Unda axborot texnologiyalari bo'yicha ta'lim sharoitlarini yanada yaxshilash va qamrovini kengaytirish, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini

malakali axborot texnologiyalari mutaxassislari darajasi-ga ko'tarish, veb-dizayn, kompyuter grafikasi, tasviriy va raqamli san'at, audiovizual asarlar yaratishga yo'naltirish bo'yicha vazifalar belgilandi. Bularning bari Gulnora opa faoliyati va maqsadlariga hamohang bo'ldi.

Gulnora Nurmetovaning yana bir xislati e'tirofga loyiq. Odatda ta'lim olaman, hunar o'rganaman deb kelgan yoshlar iqtidoriga qarab tanlanadi va o'ziga mos kurslarga tavsiya etiladi. Yangi bilim dargohi nodavlat ta'lim maskani bo'lganidan unda o'qish belgilangan to'lov asosida olib boriladi. Biroq o'qiyman deb kelgan yoshlar orasida iqtidorli, intiluvchan, ammo to'lovga qurbi yetmaydiganlari ham uchraydi. Gulnora opa ko'p yillik tajribasi tufayli bunday ilimga chanoq yoshlarni nazardan qochirmaydi. Ayniqsa, bu yilning "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nomlanishi Gulnora opani e'zgu ishlarga yanada ruhlantirdi. U ijtimoiy himoyaga muhtoj bir qator yoshlarni o'z bag'riga olib, mehr-muruvvat ko'rsatdi. Bugun ular o'z sevgan sohalarning yetuk mutaxassisi bo'lishga intilishmoqda. Ularni ko'rib, Gulnora opa xayoliga yoshligida eshitgan bir rivoyat keladi.

Aytishlariga qarganda, bir miskin yigit hunarmand do'koniga ehson so'rab kelibdi. Usta unga shunday debdi: "O'g'lim, men hozir senga birmuncha pul berishim mumkin. Ammo bu pul bugun yeyishingga, nari borsa, ikki-uch kunga yetadi. Agar rozi bo'lsang, senga o'z hunarimni o'rgatay. Uning orqasidan bir umr och qolmayasan". Yigit suyunib, ustaga shogird tushibdi. Tez orada qo'li gul hunarmand bo'lib, dovrug' qozonibdi. Halol mehnati orqasidan daromad topib, turmushi go'zallashib ketibdi.

Gulnora Nurmetova rahbarlik qilayotgan ta'lim dargohida bir guruh ijtimoiy himoyaga muhtoj iqtidorli yoshlar ham hech qanday to'lovlarsiz o'qishmoqda. Ular ham ertaga shu ilm-zakovati tufayli hayotda o'z o'rinlarini topib ketsalar, ustoz uchun bundan ortiq baxt bormi?!

Muzaffar USMONIY

O'qituvchining zamonaviysi bo'ladimi?

Ta'lim haqida gap ketganda rivojlangan davlatlarda olib borilayotgan ta'lim tizimiga, tarbiya usullariga doimo qiziqamiz. Deylik, AQSHda bolalar 5-6 yoshda maktabga qabul qilinib, 6-sinfga qadar arifmetika, o'qish, yozish, tabiiy fanlar o'rgatiladi. Fransiyada maktab ehtiklari 8:00 da ochilib, 16:00 da yopiladi. Finlandiyada esa ingliz tilidan tashqari ham bir qancha xorijiy tillar o'rgatilishiga e'tibor qaratiladi. Bu misollarni keltirishimdan maqsad, biz ta'lim, milliy maktab borasida dunyo bilan qay darajada bellasha olamiz?

Milliy maktablarimizning bo'yi jahon miqyosida ko'rinadigan darajaga keldimi? Jahonga chiqishimiz, dunyo standartlariga mos kelishimizda ta'limning milliy usuli qiymat kasb etmaydimi? O'qituvchining zamonaviysi qanday bo'ladi? Oldingi o'qituvchi bilan bugungi ustozning orasida tafovut qay darajada?

O'zim faoliyat olib borayotgan maktabda o'qituvchilarning ish jarayoni, ta'lim usullari bilan tanishib borar ekanman, bugungi o'qituvchining bilim va malakasini kamsitmagan holda oldingi o'qituvchilarni sog'inaman: jonkuyar, vijdonli, kuyinchak, beta'ma... Va

bugun dunyo tobora zamonaviylashib, globallashib borayotgan bir davrda oddiylilikni, soflikni, to'g'rilikni o'ziga libosday kiyib olgan o'qituvchilarimizni esga olaman, qo'msayman. O'qituvchi - jamiyatning mayog'i hisoblangan o'sha zamonda(zotan har bir asrda shunday bo'lmog'i kerak).

Bizning Shayxontohur tumanida joylashgan 41-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot fanidan dars berishga umrini bag'ishlagan ana shunday o'qituvchilardan biri Mavluda Komilova edi.

Mavluda Qurbon qizi 1945-yilda dunyoga kelgan. 1963-yili Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida 95-mak-

tabni a'lo baholarga tamomlab, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Institutni tamomlagach, mamlakatimizning eng qaynoq go'shalarida faoliyat olib bordi.

1975-yildan 2000-yilgacha, ya'ni 25 yil davomida 41-umumta'lim maktabimizda bolalarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berdi. Yigirma besh yil davomida ushbu maktabda faoliyat olib borar ekan, elimiz ravnaqiga hissa qo'shgan millatparvar insonlar tarbiyasiga hissa qo'shdi.

Mavluda opa tilimiz nafosatini nihoyatda chuqur his qilgan holda, bolalarni til jozibasini yanada yuksakroq tuyishga undardi. Hisobot topshirish uchun tadbirlar tashkil etganini eslay olmayman. Aslida, yetuk muallimaning sinfxonalarda o'tgan har bir darsi til va adabiyot faniga bag'ishlangan tadbir yoki anjuman qolishmagan. U o'quvchilarning til qoidalarini mukammal bilishlari, so'z boyliklarini muntazam oshirib borishlari, xotirani mustahkamlash maqsadida ko'proq she'r yod olishlari uchun zamin hozirlardi.

Amir Temur bobomiz "Bizning kimligimizni bilmoqchi bo'lsangiz, biz qur-

gan binolarga boqing", deya xitob qilgan. O'qituvchini bilish uchun esa, u ta'lim bergan o'quvchilarga, millat ahvoriga qaralsa, kifoya. Shu ma'noda, Mavluda Qurbon qizidan tahsil olgan o'quvchilarning har biri bugun jamiyatimizda kerakli kadr, hayotda, odamlar orasida o'z qiyofasiga ega insonlardir. Ana shularni ko'rar ekanman, faxriy o'qituvchilarning dars o'tish usullari ommalashtirilishini xohlardim.

Ziyo bu yilt etgan nurdur. Qorong'ini yoritadi. O'qituvchini ziyoli deyishadi. O'qituvchi esa qop-qorong'i qalblarga ziyo, nur olib kiradi, zulmatni yoritadi. Insonning qalbi ilm olishga hamisha ochiqdir, faqat biz unga borar yo'lni to'g'ri aniqlay olsak, bas! Bu borada esa Mavluda Qurbon qizi kabi marhum o'qituvchilarning kasb yo'llari biz uchun nurli bir hujjatdir. Zero, slayd yoki videodarslar bilan o'qituvchi zamonaviylashib qolmaydi. Uning zamonaviylik bolalar qalbiga yo'l topishida, o'z ilmini ularga singdirmog'ida bo'lmog'i kerak.

Gulnoza MUZAFFAROVA,
Shayxontohur tumanidagi
41-maktab direktori

Navoiyxonlik

Alisher Navoiy ijodida g'azalnavislik — doston, ruboiynavislik, lug'atchilik sho'balari orasida alohida ahamiyatli. Navoiyshunoslikda shoir g'azaliyoti atroflicha o'rganilgan bo'lsa-da, uning tahlilalab nuqtalari ko'p. Zero, har bir satri bilan abadiylikka daxldor bu ulkan so'z san'atkorining ijodiy merosi o'rganilgani sayin chuqurlashib boraveradi. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi g'azal shunday matla' bilan boshlanadi:

"Yetmak mahol aql-u farosat bilan sanga..."

*Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqli, qurb taqvov-u toat bilan sanga.*

G'azal 9 baytdan iborat. Jami so'zlar 109 ta. G'azal tarkibidagi o'z qatlam, ya'ni turkiy tilga oid so'zlar: ey, o'lub, sanga, andoqli, topmoq, bilan, ko'rub, o'z, ayta olmas, oncha, yuz ming, bosh, oyoq, etib, o'lmasa, tamomi, qochmayin, oh, ko'p, yo'q, istar, muncha. Qolgan so'zlar o'zlashma qatlam — fors-tojikcha, arabcha so'zlardir. Qofiyaga olinganlari: fasohat, toat, farosat, balog'at, kasofat, hidoyat, zalolat, ibodat, nadomat, xijolat. Qofiya tarkibidagi raviy (tirgak tovush) "i" tovu-shi. Qofiya turiga ko'ra muqayyad. Ushbu g'azal Navoiyning hamd g'azallari ichida eng go'zallari-dan biri. Matlasidayoq Ollohgaga bevosita murojaat borligini sezamiz: Ollohgaga yaqinlik degani unga chiroyli so'zlar aytishgina emas, shunga hamohang xudojo'ylik, ibodat bilan yaqinlashish demakdir.

*Topmoq ajib fikr-u taxayyul bila seni,
Yetmak mahol aql-u farosat bilan sanga.*

Matlanning bevosita davomi ikkinchi baytda ham Ollohning sifatlarini sanashda davom etiladi. Uning bir-u borligiga ishoralar keltiriladi. Seni ajoyib fikr-u xayollar, aql-u farosat bilan ham to-pish qiyin. Ollohni topmoq uchun tom ma'noda so-lih banda bo'lmoq dardkor. Ollohni anglash uchun moddiy, mavhum narsalarni o'ylaydigan aql, xayol ham yordam berolmaydi, bunga faqat toat-ibodat bilan yetishish mumkin. Ushbu baytda fikr, aql, taxayyul so'zlari orqali tanosub san'atining go'zal namunasi yuzaga kelgan:

*Chun koinot zubbasi ojiz ko'rub o'zin,
Hamd ayta olmas oncha balog'at bilan sanga.*

Uchinchi baytda mulbog'a san'ati qo'llangan. Koinot sarasi shunchalik yetuk, barkamol, benuqson bo'laturib, o'zini ojiz sanab senga hamd ayta olmadi. Yuqoridagi uch baytdan bizga shu ma'lum bo'ldiki, Ollohgaga yaqinlik uchun go'zal so'z, xayol, aql yordam berolmaganidek, yetuklik, barkamollik ham yordam berolmaydi.

*Izhorij ajz bizdin adab tarkidur, base
Yuz ming qusur-u nuqs-u, kasofat bilan sanga.*

To'rtinchi baytda kelib lirik qahraman Olloh sifatlarini aytishdan biron chekinib, o'z nuqsonlarini bayon qiladi: "Senga yuz ming nuqson va qusurlar bilan ojizlik bayon qilishimiz odobsizligimizdir". Ojiz bandalar Ollohdan hech qachon madad so'rashdan to'xtamaydilar. Ular gunohkor bo'lsin, xoh gunohsiz, barchasi Ollohgaga arzlarini bir xilda bayon qiladi. Ammo Olloh bilan tom ma'noda birlikni hosil qilmoq uchun har qanday ma'naviy va axloqiy qusurlardan xoli bo'lmoq dardkor.

*Har tiyra ro'zgorki, vaslingg'a yo'l topib
Sendin, etib charog'i hidoyat bilan sanga.*

Beshinchi baytda to'rtinchi baytdagi muam-moli vaziyatga yechim topilganday bo'ladi. Har baxtiqaro sening vaslingga yaxshilik nuri bilan

yetishadi. Buyuk Rabbimiz barcha gunohlarimizni kechiruvchi zotdir. Bilib-bilmay qilgan gunoh-larimizning kechirilishi uchun esa, albatta, yax-shiliklar bilan ziynatlangan bo'lmoq'imiz dardkor. Baytda tashbeh san'atidan foydalanilgan: tiyra ro'zgor, charog'i hidoyat.

*Lutfung rafiqim o'lmasa ne hadki yetkam
Boshdin ayog' gunoh-u zalolat bilan sanga.*

Oltinchi baytda lirik qahramon yana Olloh sifat-larini madh etishga o'tadi: "Agar mehning menga do'st bo'lmasa, boshdan-oyoq gunoh va gumrohlik bilan senga yetib bo'lmaydi", deya ta'kidlaydi. Har qanday gunohkor va yo'ldan ozgan bandalar ham Olloh shafqati tufayli uning marhamatiga sazovor bo'lishiga ishora qilinmoqda. Baytda bosh va oyoq so'zlari orqali tazod san'ati yuzaga kelgan.

*Lutf aylagilki mumkin emas qilmasang qabul,
Etmak tamomi umr ibodat bilan sanga.*

Yettinchi baytda lirik qahramon fikrlarini izchil rivojlantiradi: "Olloh lutf qilmasa, inson butun umr toat-ibodat qilsa ham bari bekor". Baytda in-son umrining o'tkinchi va qisqaligiga ishora mav-jud. G'azalning yakpora ekanligi so'nggi baytlar-da yanada oydinlashadi. Chunki matladagi fikrlar mazkur bayt orqali yanada to'ldirilgan. Har ikkala baytda ham Ollohgaga yetish yo'lidagi asosiy amal ibodat bilan pokiza ko'ngil, sof niyat va Olloh mar-hamati ekanligi ta'kidlangan.

*Chun sendin o'zga yo'q panohim
qochmayin netay
Jurm-u gunahdin oh-u nadomat bilan sanga.*

Gunoh, oh va nadomat bilan nima qilay, sendan o'zga panohim yo'q, qochmagin. Bandaning eng yaqin rafiqi Ollohdur. Mazkur baytda ham tanosub san'atini ko'rishimiz mumkin: jurm-gunoh, oh-na-domat.

*Isoni ko'p Navoiyning-u yo'q uyotikim,
Istar yetishsa muncha xijolat bilan sanga.*

Navoiyning isyoni ko'p, uyati yo'q. U ko'p xi-jolatlar bilan bo'lsa ham Ollohgaga erishishni istay-di. Bu baytda ham hayotiy hodisaga duch kelamiz. Insonni qiyin vaziyatlarda yaqin kishilari tash-lab ketishi mumkin. Lekin Olloh hech qachon yordamini darig' tutmaydi. Lirik qahramon buni yaxshi tushungan holda istak, mayllari haddan ortiqligidan xijolat tortadi. Ushbu mayllardan eng buyugi Ollohgaga yetishish.

Hazrat Navoiyning mazkur g'azalida Ol-lohning ko'pgina sifatleri: mehribonlik, qodirlik, kechiruvchanlik, rahmdillik madh etilgan. G'azal badiiy jihatdan ham g'oyatda e'tiborga sazovor. Navoiyning boshqa asarlari singari ushbu g'azali ham asrlar silsilasidan o'tib, o'z qiymatini yo'qot-may kelmoqda.

Zariqa SAYLIYEVA,
Buxoro davlat universiteti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası
o'qituvchisi

Mangu yorug' maskanim manim

"Abdulla Orif she'riyati so'zning milliy ohorida dunyoga Vatanni tanitgan ulug' she'riyatdir... Faqat o'zigagina xos o'qish uslubi bilan deyarli barcha she'rlarini yoddan biladigan, qalblarni sehrlab olgan va bir lahzada o'zining shoiriga aylangan, odamlarning qon tomiridagi karaxtlarni uyg'otib yuborishga qodir bunday iste'dod egasida o'zbek xalqi milliy o'zligimizning jon tomlarigacha seva olgan, uni asrayotgan, ulug' Navoiy bobomizdek hazratlarning Masih nafasli she'riyatini bizga yaqinlashtirayotgan qudratli so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan kuchni ko'raman.

Bu kuch millat qalbi bilan hamohang uradi. Tafakkur qudrati, fal-safiy ma'no va mazmunga boyligi, behad samimiyati bilan o'quv-chini lol qoldiradi. "O'zbekiston" qasidasi esa Abdulla Oripov qalb chashmasidan otilib chiqib, bir farzand sifatida ona Vatanni qanday faxr va og'riq bilan seva olish mumkinligi haqidagi haqiqat saboqlari-ni e'tirofiga aylanadi", deydi iste'dodli shoir Sharifa Salimova.

"O'zbekiston" qasidasi bilan tanishish jarayonida o'quvchi yurt-niing shonli tarixi sarhadlari bo'ylab maroqli sayohat qiladi. Bugun-ning jo'shqin hayoti, ertasi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Tanti, bag'rikeng, zahmatkash xalqi qalbiga yaqinlashadi. Uning orzu-ar-monlarini anglaydi. She'rning ona Vatanga bevosita murojaati ham shundan darak:

*Yurtim! Senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirilar bor o'z yurtin butun
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori.
Bir o'lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori.
Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston — Vatanim manim!*

Lirik qahramon — yurtini jon-u dili bilan ardoqlovchi chin farzand. Shoir sevimli vatani ta'rifiga munosib so'z topa olmaganiga iqrar bo'ladi. Ammo uning nihoyatda boy va betakror badiiy tas-vir vositalari, so'zlar shodasidan mohirona foydalanilgan tahsinga loyiq. Abdulla Oripov qaydicha, "boshqa shoirilar vatanini butun olamda tanho hisoblaydi. Ularning she'ri "qanotida kumush diyorini ko'tarib", juda yiroqlarga yetib bordi. Biroq bitilmagan doston kabi bir go'zal o'lka bor dunyoda. Ta'rif-u tavsifiga qalam ojiz, demakki, beqiyos, mukammal va mukarram. Shoir yurtini ana shunday yuk-saklikda ko'radi.

She'ming keyingi bandlarida shoir yurtining uzoq va shonli o'tmishi, tabiati, tarovatini, yurt bag'rida ulg'aygan buyuk siymo-lar, daholarni tashbeh-u talmehlar ila birma-bir mazmun og'ushiga qamrab oladi. Shoir she'rni el-u yurtiga umrboqiylik, saodat tilash mazmunidagi misralar bilan yakunlaydiki, bu ham qadrdon xalqiga samimiy va o'tli muhabbatning, mehr va sadoqatning yorqin namu-nasi bo'lib qoladi:

*Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,
Zavol bilmas quyoshing bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,
Do'st-u yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug' bashar oilasida
Mangu yorug' peshonang sening.
Mangu yorug' maskanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim!*

Darhaqiqat, Abdulla Oripov she'riyati yosh avlodni vatanpar-varlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qila oladi. Ushbu she'rni bor badiiy-ma'rifiy jozibasi bilan o'rganib targ'ib etish hamisha o'z dolzarbligi va didaktik ahamiyatini saqlab qoladi.

Umida RAHMONOVA,
Shayxontohur tumanidagi
82-maktabning ona tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 3- va 4-varianti tahlili

ONA TILI

1. Quyidagi qaysi so'zdan *-a* qo'shimchasi bilan fe'l yasalganda tovush almashishi kuzatilmaydi?

- A) yosh B) son C) ot D) qon

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan fonetika bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

A, B, C javoblarda “yosh”, “son”, “ot” so'zlaridan *-a* qo'shimchasi bilan fe'l yasalganda “yasha(moq)”, “sana(moq)”, “ata(moq)” shakliga keladi. Bunda asosdagi *o* tovushi *a* tovushiga o'zgargan.

D javobda “qon” so'zidan *-a* qo'shimchasi bilan fe'l yasalganda “qona(moq)” shakliga keladi. Bunda asosda ham, qo'shimchada ham hech qanday tovush o'zgarishi kuzatilmayapti.

Javob: D.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 5-sinf ona tili darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2020.

2. Odamlarga achchiq va dag'al so'zlamagin, dag'allik misli olov, kuydirguvchi yolgindir. Ushbu gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) ega
B) aniqllovchi
C) to'ldiruvchi
D) hol

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan gap bo'laklari bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Ushbu gapni sintaktik tahlil qilish jarayonida avval kesimni topib olamiz: “so'zlamagin”, “olov(dir)”, “yolgindir” so'zlari gapning kesimlari hisoblanadi.

A javobda birinchi gapning egasi yashiringan (shartli ravishda “sen” so'zi). Ikkinchi gapning egasi “dag'allik” so'zi.

B javobda aniqllovchi deyilgan, lekin ushbu gapda aniqllovchi qatnashmagan.

C javobda “dag'allik” so'zi emas, balki “odamlarga” so'zi to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

D javobda “achchiq”, “dag'al” so'zlari hol (“qay holda?” so'rog'iga javob bo'lib, ravish hol) vazifasida kelgan.

Javob: A.

Manba: M.Qodirov va boshqalar. 8-sinf ona tili darsligi. Cho'lpun nashriyot uyi. Toshkent – 2019.

3. Yerga urmoq. Ushbu iboraning antonimi berilgan javobni belgilang.

- A) ko'ngli joyiga tushmoq
B) og'zida osh damlamoq
C) ko'kka ko'tarmoq
D) qulog'iga lag'mon ilmoq

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan leksikologiya bo'limi bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Jumladan, “yerga urmoq” iborasiga “ko'kka ko'tarmoq” iborasi antonim (zid ma'noli) bo'la oladi.

To'g'ri javob: A.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 11-sinf ona tili darsligi. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent – 2018.

4. Qaysi gapda kishilik olmoshiga ta'kid ma'nosi yuklangan?

- A) O'zi po'latdan, Dumi yog'ochdan.
B) Mening og'am ichinda, Soqollari tashinda.
C) Iloji bo'lsa, unga bildirmaylik.

D) Mening o'zim ham hayronman.

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan morfologiya bo'limi bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Yuqoridagi test topshirig'ini bajarishda darslikda berilgan quyidagi qoidaga tayanamiz: “O'zim, o'zing, o'zi so'zlari ba'zan egalik qo'shimchalariga mos kishilik olmoshlari bilan mening o'zim, sening o'zing, sen o'zing, uning o'zi, u o'zi tarzida qo'llanadi va bu vaqtda ko'pincha kishilik olmoshlariga ta'kid ma'nosi yuklanadi”.

Demak, ushbu qoidaga asoslansak, D javobdagi “mening o'zim” birikuvi to'g'ri javob uchun asos bo'la oladi.

Javob: D.

5. U ovchiga yalinib dedi: “Sen meni qo'yib yuborsang, barcha do'stlarimni aldab kelib, tuzog'ingga tushirib beraman”.

Ushbu ko'chirma gapning tuzilishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) M: «K».
B) «K», – m.
C) «K, – m, – k».
D) M: «K», – m.

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan ko'chirma gaplar bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Yuqoridagi testni alohida qismlarga bo'lish orqali tahlil qilsak, ko'chirma gap tahlili yaqqol namoyon bo'ladi:

U ovchiga yalinib dedi (muallif gapi): “Sen meni qo'yib yuborsang, barcha do'stlarimni aldab kelib, tuzog'ingga tushirib beraman” (ko'chirma gap).

Javob: A.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 9-sinf ona tili darsligi. “Tasvir” nashriyot uyi. Toshkent – 2019.

G'anisher HAQNAZAROV,
Xatirchi tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA

1. Hisoblang: $\frac{3}{12} + \frac{3}{20} + \frac{3}{30} + \dots + \frac{3}{240} = ?$

- A) $\frac{13}{16}$ B) $\frac{35}{48}$ C) $\frac{65}{48}$ D) $\frac{35}{16}$

Yechilishi: Bunda $\frac{1}{1 \cdot 2} = \frac{1}{1} - \frac{1}{2}, \frac{1}{2 \cdot 3} =$

$$\frac{1}{2} - \frac{1}{3}, \frac{1}{3 \cdot 4} = \frac{1}{3} - \frac{1}{4}, \frac{1}{(n-1) \cdot n} = \frac{1}{n-1} - \frac{1}{n}$$

tengliklardan foydalanamiz.

$$\begin{aligned} \frac{3}{12} + \frac{3}{20} + \frac{3}{30} + \dots + \frac{3}{240} &= 3 \cdot \left(\frac{1}{12} + \frac{1}{20} + \frac{1}{30} + \dots + \frac{1}{240} \right) \\ &= 3 \cdot \left(\frac{1}{3 \cdot 4} + \frac{1}{4 \cdot 5} + \frac{1}{5 \cdot 6} + \dots + \frac{1}{15 \cdot 16} \right) \\ &= 3 \cdot \left(\frac{1}{3} - \frac{1}{4} + \frac{1}{4} - \frac{1}{5} + \dots + \frac{1}{15} - \frac{1}{16} \right) \\ &= 3 \cdot \left(\frac{1}{3} - \frac{1}{16} \right) = 3 \cdot \frac{13}{48} = \frac{39}{16} = \frac{13}{16} \end{aligned}$$

Javob: A.

2. 0,1,3,5,7 raqamlaridan nechta ikki xonali son tuzish mumkin?

- A) 16 B) 18 C) 20 D) 22

Yechilishi: Agar ikki xonali sonni $\overline{ab}$ ko'rinishida

yo'zish mumkin bo'lsa, *a* ning o'rniga 1,2,5,7 sonlarini, ya'ni to'rtta sonni qo'yish imkonini bor. *b* sonining o'rniga esa, 0,1,3,5,7 sonlarini, jami beshta son qo'yish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, 0,1,3,5,7 raqamlaridan hammasi bo'lib 4·5=20 ta ikki xonali son tuzish mumkin.

Javob: C.

Agarda raqamlari takror bo'lmaganda, *a* sonining o'rniga 4, *b* sonining o'rniga ham 4, jami bo'lib 4·4=16 ta bo'lar edi.

3. -8, -7, -5, 2, 4, 8 sonlari orasidan ixtiyoriy ikkita son tanlab olindi va bir-biriga ko'paytirildi. Eng kichik son nechaga teng bo'lishi mumkin?

- A) -63 B) -64 C) -18 D) -56

Yechilishi: manfiy va musbat sonlarning ko'paytmasidan eng kichik son hosil qilish uchun manfiy sonning ham, musbat sonning ham moduli eng katta bo'lishi kerak. Bu misolda moduli eng katta musbat son 8, moduli eng katta manfiy son esa -8 ga teng.

Demak, 8·(-8)=-64

Javob: B.


4. $10 < n \leq 37$ tengsizlikni nechta tub son qanoatlantiradi?

- A) 8 B) 9 C) 18 D) 19

Yechilishi: Bizga ma'lumki, bo'luvchilari soni ikkita bo'lgan sonlar tub sonlar deyiladi. Eng kichik tub son bu -2. Bu qo'sh tengsizlikni qanoatlantiruvchi tub sonlar, 11, 13, 17, 19, 23, 29, 31, 37.

Demak, tub sonlar soni 8 ta.

Javob: A.



5. Agar rasmda ko'rsatilgan uchburchaklar to'g'ri burchakli bo'lsa, bo'yalmagan soha yuzini toping.

- A) 4 B) 11 C) 6 D) 15

Yechilishi: Bizga ma'lumki, to'g'riburchakli uchburchakning yuzi katetlari ko'paytmasining yarmiga teng. Katta uchburchakning yuzidan kichik uchburchakning yuzini ayirib tashlasak, bo'yalmagan soha yuzi kelib chiqadi.

Demak:

$$S_{\text{bo'yalmagan soha}} = \frac{5 \cdot 6}{2} - \frac{4 \cdot 2}{2} = 15 - 4 = 11 \text{ kv.b.}$$

Javob: B.

Manba: M.A.Mirzaahmedov, A.A.Rahimqoriyev, Sh.N.Ismailov, M.A.To'xtaxodjayeva. Matematika, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6-sinfi uchun darsliklar. “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017.

Keyingi sonda oldingi sonlarda berilgan mavzular bo'yicha takrorlash testlari beriladi, bunda testlar 5-, 6-, 7-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

1. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga kim rahbarlik qilgan davrda O'zbekistonda islom diniga erkinliklar berilgan?

- A) Nuriddin Muhitdinov
B) Amin Niyozov
C) UsmonYusupov

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 3- va 4-varianti tahlili

D) Sobir Kamolov

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining 1917–1991-yillar davriga oid. Sobir Kamolov Toshkentlik bo'lib, u atigi 15 oy davomida respublika partiya tashkilotini boshqargan.

Bu davrda O'zbekistonda kadrlarni mahalliy lashtirish jarayoni ommaviy ravishda amalga oshirila boshlandi, islom diniga erkinliklar berildi. Bu holat Markaz rahbariyati(N.Xrushchyov, M.Suslov va b.)ga yoqmay, u o'z lavozimidan olib tashlandi.

Javob: D.

Manba: Q.Rajabov, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 10-sinf darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent–2017(111-bet).

2. Sitorayi Mohi Xosa saroyi bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A) Saroy besh xonadan iborat: kutish zali, qabulxona, taxt-xona, ziyofatxona va mehmonxona

B) Qasr qurilishi munosabati bilan rus podshosi Nikolay II ikkita maxsus qandil va kamquvvatli nurquvvat uskunasi sovg'a qilgan

C) Buxoro shahri markazidan 3,5 km shimolda joylashgan

D) Saroyning bir qismi bo'lgan Oq zalning qurilishida yevropacha qurilish uslubi ustunlik qiladi

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarigacha bo'lgan davriga oid. Sitorayi Mohi Xosa Buxoro shahri markazidan 2,5 km janubda joylashgan. Saroy Buxoro amiri Olimxonning yozgi qarorgohi bo'lgan. Saroyning bir qismi bo'lgan Oqzalning qurilishida yevropacha qurilish uslubi ustunlik qiladi.

Javob: D.

Manba: S.Tillaboyev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent–2019(152-bet).

3. Quyidagi qaysi jangda Jaloliddin Manguberdi muvaffaqiyat qozonmagan?

A) Isfahon yaqinidagi jangda

B) Tarak daryosi bo'yidagi jangda

C) Basra yaqinidagi jangda

D) Arzinjon yaqinidagi jangda

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid. A javobdagi 1227-yil sentabrda Isfahon yaqinida bo'lib o'tgan jangda Jaloliddin mo'gullarning Taynol No'yon boshliq qo'shinini yenggan. B javobdagi Tarak daryosi bo'yida 1395-yilning 15-aprelida Amir Temur va To'xtamishxon qo'shinlari o'rtasida jang bo'lib o'tgan. C javobdagi Basra yaqinidagi jangda Jaloliddin xalifa Nosir qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratgan. D javobdagi Arzinjon yaqinida 1230-yilning avgustida Ko'niya, Jazira, Damashq va Misrning birlashgan qo'shinidan Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag'lubiyatga uchragan.

Javob: D.

Manba: A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent–2017(77-bet).

4. Quyidagi qaysi topilma bronza davriga oid Surxondaryodagi Jarqo'ton manzilgohidan topilgan?

A) Ibadatxona qoldiqlari

B) Mil. avv. III–II asrlarga tegishli mahalliy yozuvlar

C) Budda haykallari

D) 20 dan ortiq bo'yalgan loyhaykallar

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining qadimgi davriga oid. B javobdagi mil. avv. III–II asrlarga tegishli mahalliy yozuvlar Qo'yqirilganqal'adan topilgan. C javobdagi budda haykallari Eski Termiz va Dalvarzintepadan topilgan. D javobdagi 20 dan ortiq loyhaykallari Tuproqqal'a saroyidagi zallarning birida o'rnatilganligi tarixchilar tomonidan qayd etilgan. A javobdagi ibodatxona qoldiqlari Surxon vohasidagi (hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo'lmagan joy) Jarqo'ton manzilgohidan topilgan.

Javob: A.

Manba: A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. “Yangiyo'l poligraf servis” nashriyoti. Toshkent–2017(24-bet).

5. Qo'qon madrasalarida mullalar faoliyatiga kimlar boshchilik qilgan?

A) masjid imomlari B) mutavakkillar

C) sadrlar D) mutavallilar

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI–XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davriga oid. Qo'qon xonligida madrasalar ham faoliyat ko'rsatgan. Xususan, 1841-yilda Qo'qon shahri madrasalarida 1000 nafar mulla ta'lim olgan. Ularning faoliyatiga mutavakkillar boshchilik qilishgan.

Javob: B.

Manba: U.Jo'rayev, Q.Usmenov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–2019(149-bet).

Jalol BOLTAYEV,

Urganch davlat universiteti magistranti,
“Limetless” o'quv markazi tarix va geografiya fanlari repetitori

Yangi o'quv fani: davlat tilida ish yuritish/akademik yozuv

Jamiyatda ijtimoiy munosabatlar turli hujjatlar bilan tartibga solinadi. Mazkur hujjatlar maqsad-mohiyati, vazifasi, shakl-tuzilishi jihatdan bir necha turga bo'linadi va har birining o'z o'rnini va qo'llanish doirasi mavjud. Shuningdek, hujjatlar o'ziga xos qolipda yozilish, tarkibiy ketma-ketlikka amal qilish, mavzuga muvofiq matn tuzilishni ham taqozo etadi. Oliy ta'limda tahsil olayotgan har bir talaba kelajakda ma'lum bir sohada faoliyat yuritish ekan, albatta, o'zaro munosabatlarni shakllantiruvchi turli rasmiy hujjatlarga duch keladi. Ayniqsa, davlat va shaxs, shaxs va shaxs orasidagi huquqiy munosabatlarni hal etishda yuristlarning o'rnini katta.

Shu bois bo'lajak huquqshunoslarda davlat tilida ish yuritish qonun-qoidalarini, huquqiy hujjatlar tuzilishini puxta o'zlashtirmog'i lozim. Qolaversa, yurisprudensiyada yuridik masalalarni yoritishda fikrni asoslantirib mantiqiy izchillikda ifodalash va adabiy til me'yorlariga qo'shimcha ravishda soha terminologiyasi, yuridik til qonun-qoidalarini, xususiyatlarini o'rgatish va amaliy mashqlar yordamida mutaxassislik tilini boyitish maqsadga muvofiqdir.

Shu maqsadda Toshkent davlat yuridik universitetida o'quv fanlariga yangi o'quv yilidan Davlat tilida ish yuritish Akademik yozuv moduli kiritildi. Modul TDYU bakalavriat 1-kurs talabalari

uchun mo'ljallangan bo'lib unga 5 kredit (50 kontakt soat) ajratilgan. Mazkur modulning dasturi shu doiradagi milliy va dunyoning nufuzli huquq oliygohlari o'tiladigan “Akademic writing” fani maqsad va vazifalaridan kelib chiqib shakllantirildi. Modul mavzulari asosida talabalar uch xil masala doirasida bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi:

a) idoraviy-devonxona va qonunchilik hujjatlarini yozish tartibi;

b) yuridik matnlarni tuzish, sharhlash va tahrir qilish;

d) badiiy asarda yoritilgan huquqiy muammolarni topish va hal etish, huquqiy esse yozish.

Mazkur modul mohiyatan nazariy bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlashga, talabalarning mustaqil ra-

vishda ish yuritish qog'ozlarini tuzishi, mutaxassislik tilini puxta o'zlashtirishi, yuridik muammoni topish va asoslantirish hamda uni talab darajasida bayon etish(og'zaki va yozma)ga yo'naltirilgan.

Modul mavzulari yurist talabalarining til va huquq sohasidagi bilimlarini umumlashtirish, mutaxassislik tilining qonun-qoidalarini o'rgatish, yuridik matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, badiiy asarlar misolida turli muammoli vaziyatlarini o'rganish, huquqiy esselar yozish, fikrni asoslash, qonun hujjatlarini izlash va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, mantiqiy va muammoli savollarga huquqiy asoslantirilgan javob berish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Modulni tamomlagan talabalar quyidagilarda namoyon bo'ladigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'laladi:

- Ish yuritish hujjatlarining qolip va me'yorlarini o'zlashtirish va ma'lumot-axborot hujjatlarini, xizmat yozishmalari; yuridik yozishmalar, tashkiliy va lokal hujjatlar tuzish olish;

- qonunchilik hujjatlarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini farqlash;

- yuridik matnlar bilan ishlash, asosiy

g'oyani aniqlash, matndagi o'zaro mantiqiy bog'liqlik (kiritish, asosiy, xulosa)ni topish;

- yuridik matn tuzish qoidasi, matn mazmunidagi jumla, matn va paragraf(band)larni to'g'ri tuzish, g'oyalar ketma-ketligi (“Flow of Ideas”) qoidasini bilish;

- yuridik muammoni topish, huquq manbalarini tanlash, tahlil qilish va akademik yozuvda qo'llash;

- akademik matnda yuridik tahlil va tahrir, tahliliy ma'lumotnoma tuzish;

- matnni kengaytirish va toraytirish usullarini bilish;

- o'qilgan asar asosida huquqiy esse yozish, og'zaki nutqni rivojlantirish;

- turli masalalarda esselar yozish.

Xullas, mazkur moduldan katta natijalarga erishish nazarda tutilgan. Berilgan mavzular talabalar tomonidan o'z vaqtida o'zlashtirilsa va mustaqil topshiriqlar tizimli bajarib borilsa, albatta, yurist-talabalarning til ko'nikmalari rivojlanadi, og'zaki va yozma nutq malakalari oshadi. Zero, inson mutaxassislik bilimlari bilan birga til bilimlarini mukammal egallash orqaligina ma'lum bir sohada tanilishi mumkin.

Nasiba BOZOROVA,
TDYU “O'zbek tili va adabiyoti”
kafedrasida dotsenti

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Bulkadan tashqari boshqa bir it – bo'rilarga tashlangan Drujka haqida ham hikoya bor. Katta, juda sust, og'ir – "Ov tutunlikdan battar" deya nomlangan hikoya bor. Unda ayiq ovi, qishki o'rmon, qoraqarag'ay shoxida o'tgan tun haqida hikoya qilinadi. "Shunchalik qattiq uxlabmanki, qayerda ekanimni ham unutibman. Atrofimga qarasam – bu qanday mo'jiza! Men qayerdaman? Tepamda qandaydir oppoq kosbona, oq ustunlar yarqirardi. Yuqoriga qaradim – oq naqshlar, naqshlar orasida qandaydir qora gumbar va rang-barang uchqunlar chaqnardi. Atrofga nazar tashlab esladim, biz o'rmondamiz, bu esa, qor qoplagan daraxtlar, qirov naqshga o'xshaydi, uchqunlar bo'lsa – shoxlar orasidagi osmonda titrab turibdi.

Kechasi qirov tushibdi: shoxlarda ham qirov, mening po'stinimda ham qirov, Demyanni ham qirov qoplabdi, tepadan ham qirov yog'ardi".

1858-yili qishda urg'ochi ayiqni o'rab olishdi – Lev Nikolayevich ayiq oviga borgandi. Tolstoy o'z joyida ikkita miltiqni o'qlab, urg'ochi ayiqning chiqishini kutardi, ammo turgan joyining atrofini toptab, qorni tekislama-gan edi. U har doim masalani o'zicha va o'zgacha hal qilardi.

Fet bu haqda shunday hikoya qiladi: "Har bir ovchi ikkita qurolni shaylab, yalanglik bo'ylab, o'rmondagi so'qmoq atrofida shaxmat tartibida joylashadi, yer o'ydim-chuqur bo'lgani uchun o'zi turgan joy va atrofidagi qalin qorni tekislab qo'yish tavsiya qilinadi, bu erkin harakat qilishga qulaylik yaratadi. Ammo Lev Nikolayevich ko'rsatilgan joyda turib, salkam beligacha botsa ham, o'sha qorni tekislashga erindi, chunki ayiq tashlanadi, ayiq bilan olishilmaydi, dedi".

Haydovchilar ovni boshladi; urg'ochi ayiq kutilmaganda Tolstoy tomonga qochdi; Lev Nikolayevich o'q uzdi; keyin yana otdi, tegdi, ammo ikkinchi miltiqni olishga ulgurmasdi, qorga botdi, urg'ochi ayiq uning ustiga tashlanib, boshini g'ajimoqchi bo'ldi. Tolstoy mo'ynali telpagini hayvonning og'ziga tiqib, boshini yelka orasiga yashirdi.

Ayiq ovidagi sardor Astashkov urg'ochi ayiq yoniga chopib keldi va uni quruq shox bilan urib: "Nima qilyapsan? Nima qilyapsan?" deya asta qichqirdi.

Urg'ochi ayiq qo'rqib ketib qochdi: uni kelasi kuni otib o'ldirishdi. Tolstoyning chap ko'zining tagi, yuzi o'yilgan, manglayining chap tomonida tirnoq izlari qolgandi.

Tolstoy yarasi bog'langandan keyin o'rmondan turib deydi: "Fet nimadir demoqchimi?" Bu Fetning aytganlari.

Fet – katta shoir, 1859-yilgi yangi yil bayrami arafasidagi voqeani maqtanib so'zlaydi: u hammasini oldindan ko'ra bilgan, uning so'zlariga qulqol solishmagani uchun baxtsizlik sodir bo'lishiga oz qolgan emish.

Tolstoy oradan o'n to'rt yil o'tgach, hammasini xotirjam holda vahimali

tus berib hikoya qiladi. Uning bosh qahramoni Demyan – yo'lbo'shchi, asosiysi xavfsizlik emas, ov: "Demyan esa qurolsiz, qo'lida birgina xivich, so'qmoqdan qichqirib keladi: "Barinni yedi, Barinni yedi!" O'zi yugurar, ayni paytda ayiqqa qichqirardi: "Ha, senmi, g'alamis! Nima qilyapsan? Tashla! Tashla!"

Ayiq gapga kirdi, meni tashlab qochdi. O'rmondan turganimda, qorga qon sachragan, xuddi qo'y so'ygandek va ko'zim ostida bir bo'lak go'sht osilib turardi, qiziqqonlikdan og'riqni sezmasdim.

O'trog'im chopib keldi, odamlar yig'ildi, jarohatimni ko'rishdi, qor surtib tozalashdi. Men jarohatni unutib so'radim: "Ayiq qani, qayoqqa ketdi?" Birdan ovoz yangradi: "Ana u! Ana u!" Ko'rdikki, ayiq yana bizga qarab chopib kelardi. Biz miltiqdarga yopishdik, ha, hech kim

"Alifbo"

o'q uzishga ulgurmasdi, – u qochib qoldi". So'ngra bu ayiqni qanday o'ldirishgani haqida batafsil hikoya qilinadi.

"Alifbo"da uch hikoyadan iborat butun boshli bo'lim daraxt kesish tasviriga bag'ishlanadi. Butun bo'lim qo'shib, quyma yozilgan: pomeschik o'ziga bog' barpo qiladi, beixtiyor tabiatga zarar yetkazadi, u shox-shab-balarni kesib tashlamochi bo'ladi, kattaligi ikki quloq keladigan, atrofini novda-nihollar qoplagan terakka ko'zi tushadi. Baringa keksa terak nihollar orasida siqilib qolganday tuyiladi va uning atrofini kengaytirib qo'yishni istaydi. Kichkina teraklarni kesib tashlaydi, eski terak esa qurib qoladi. Nihol keksa terak tomiridan ko'karib chiqqan, u o'z kuchini nihollariga bera boshlagandi; insonning o'zi bilmagan ishga aralashuvi oqibatida keksa terak bekordan bekorga qurib qoladi.

Pomeschik shumurni ham behuda xazon qiladi. Daraxtni kesishganda shumurt ustiga yiqiladi. "O'sha vaqtda aniq nimadir qichqirgandek bo'ldi – daraxtning o'rtasi qarsilladi; biz astoydil harakat qildik, u yig'lagandek bo'ldi – o'rtasidan sinib, daraxt ag'nadi. U kesilgan joyidan uzilib, tebrangancha novdasi va boshqa gullarni bosib o't ustiga ag'nadi. So'ngra novda va gullar titrab-titrab, tinchib qoldi.

"Eh, katta ekan-a! – dedi dehqon. – Juda afsus!" Men yuragim achib, darrov boshqa ishchilar tarafga ketdim".

Uchinchi hikoya "Daraxtlar qanday yuradi" deb nomlangan. Pomeschik yana hovuz yaqinidagi bog'ni tozalaganda shumurt topib oladi va bog' avval tozalangani yodiga tushadi, shumurt esa katta, yo'g'on. Ma'lum bo'lishicha, shumurt o'zini bosib qolgan jo'ka daraxti tagidan o'sib chiqibdi, u eski tomiridan uzilib, "shoxini tuproqqa sanchib, tomir otibdi".

Asardan inson hayotda xatoga yo'l

qo'ysa, daraxtlar olamiga ziyon yetkazadi, degan xulosa chiqadi.

Lev Nikolayevich oddiy hayot kechirishni xush ko'radi, Samaraning xushbo'y dashtlari, nishab tepaliklari, otlar uyuri yurgan o'tloqlari, sog'lom, yuvosh boshqird xalqi ko'ngliga yoqadi, qishloqni ham shunday sevadi. Boshqirdlar hayotini tushunish uchun eski kitoblarni o'qib chiqdi, ular yunon tarixchi va geografi Gerodot hikoya qilgan saklarga o'xshab ketadi. Qandaydir ortiqcha ohanjamasiz sodda yozishga, eng asosiysiga va oddiy yozishga intilish, shuningdek, hozir yashab kelayotganlar bilimi va o'z ko'hna hayotini o'zgartirmagan boshqirdlar turmushi Tolstoyini yunon tilini o'rganishigacha olib keldi.

Yunon adabiyoti, eski hikoyalarning oddiyligi Tols-

toyga "Alifbo"ni yozishida ko'mak berdi.

Ammo Tolstoy, boshqirdlarni ko'rib, o'sha tarafdin yer sotib oldi, to'g'rirog'i. qayta sotib oldi, juda arzoniga – har botmonini (bu deyarli bir gektar) o'n so'mdan oldi.

Oradan bir yil o'tgach, hammasi o'zgarib ketgani, kengliklar toraygani, dasht shudgor qilingani va u yerga dehqonlar ko'chib kelganini ko'rdi, keyin ocharchilik boshlandi.

Endi nima bo'ladi – noma'lum.

"Tezlik, bu – kuch", ammo Tolstoy tezlikka qarshi, chunki u qayoqqa borish kerak, nima uchun borish kerakligini bilmaydi.

"Alifbo"dagi eng katta hikoya "Kavkaz asiri" bo'lib chiqdi. Tolstoyning o'zi Grozniy qal'asi yaqinida chechenlarga asir tushishiga bir baxya qolgandi, o'sha vaqtlarda rus zobitlari ko'p hollarda asirga tushib qolardi, ularni uyidagilar katta pul evaziga qutqarib olishardi. "Chechenlar orasidagi rus" – Pushkinning "Kavkaz asiri" asari mavzusi. Tolstoy o'sha sarlavhani oldi, ammo barchasini boshqacha hikoya qildi. Uning asiri kambag'al dvoryanlardan chiqqan rus zobiti, qo'li gul kishi. U deyarli barin emas. U oqsuyak zobit qurolni olib otda qochib ketgani, unga yordam bermagani uchun qo'lga tushadi, qolaversa, qochgan zobitning o'zini ham asirga olishadi.

Jilin – asirning ismi shunday – tog'liklar ruslarni yomon ko'rishini biladi. Chechenlar begona odamlar, ammo unga dushman emas, uni mardligi uchun, soat tuzatishni bilgani uchun hurmat qilishadi. Asirni o'zi sevgan ayol emas, balki unga achingan qiz ozod qiladi. U do'stini ham qutqarishga harakat qiladi, uni ham o'zi bilan birga oladi, ammo u sust – bo'shlik qiladi.

Jilin Kostilinni yelkasiga opichib olib ketadi, ammo unga yordam bera-man deb yana qo'lga tushadi, keyin bir o'zi qochadi.

Viktor Shklovskiy

Tolstoy bu hikoyasidan g'ururlana-di. Bu ajoyib nasr – vazmin, ortiqcha bezaklarsiz va ruhiy tahlil degani ham yo'q. Insoniy manfaatlar to'qnashadi va biz Jilin holiga achinamiz – yaxshi odam, buning ustiga biz uni tushunamiz, shuning o'zi yetarli, uning o'zi ham o'zi haqida ortiqcha bilishni xohlamaydi.

O'qish mashqlari va hikoyalardan tashqari "Alifbo"da yana arifmetika, o'qituvchi uchun yo'l-yo'riqlar berilgan.

Bu kitob atrofida katta bahslar bo'ladi. Tolstoy «Otechestvenniye zapiski»da chiqish qiladi. Maqola mazmuni shundaki, odatda pedagoglar bola fikrlashni bilmay turib maktabga keladi, unga fikrlash va hisob-kitobni biz o'rgatamiz, deb o'ylashadi. Shu asnoda bolalar bir-biri bilan o'ynab, hisobni o'rganadi; ular hayot quchog'ga kirib kelishadi. Pedagoglar o'qitadigan o'sha kitobiy donishmandlik va kitobiy suhbatlar kelajakka emas, ortga yo'ldir.

Tolstoy mantiqiy fikrlash va barcha so'zlarni ayta olish – bu asosiysi emas va hatto, nafaqat eng muhimi, ehtimol, umuman kerak emasdir. Lev Nikolayevich o'zgacha inson qiyofasini himoya qiladi. Shuning uchun "Xalq ta'limi haqida" nomli maqolasida nafaqat alifbo haqida, balki bolalarga o'qitishni istagan tamaddun yo'li haqidagi masalani qo'yadi.

Tolstoy aytadi, asosiysi – tilni bilish, jonli tilni va cherkov-slayvan tilini – o'lik tilni hayotni o'rganish uchun va matematikaning asosi bo'lgan arifmetikani bilish uchun o'rganish kerak. Bu borada Tolstoy haq.

Ammo u hayot taraqqiyotini yolg'on deb ataganda nohaq, u to'xtatishni xohlaydi, aslida esa, tezlik kerak.

Lev Nikolayevich "Alifbo"ni ta'qib qilishyapti deb sanaydi va raddiyalarni og'ir oladi. Ammo Tolstoy hayotligida "Alifbo", qimmat bo'lishiga qaramay – yigirma tiyin turardi, qayta ishlanib, yigirma sakkiz marta nashr qilindi. Kitobni sotishga Sofya Andreyevnaning o'zi bosh-qosh bo'ldi.

Menga keksa kitob sotuvchi Mironov, hozir ham hayot, hikoya qilib bergandi, u bolaligida oddiy xalq uchun kitob sotiladigan Nikol-skiy ko'chasidagi do'konda ishlagan ekan. Uni Xamovnikidagi Lev Nikolayevichning uyiga kitob olib kelishga yuborisharkan. Qorong'i bog' ichidagi omborga kirishar, ombor eshiklarini ochib, kitob bog'lamlarini olib chiqishar ekan. Kitob donalab emas, tortib sotilarkan, necha donasi bir pud chiqishini hamma bilar ekan. Boladan bir pud "Alifbo"ga yetadigan pul berib yuborishibdi.

Ba'zida Lev Nikolayevich, keksayingan chog'ida bolaga "Alifbo"ni ko'tarib boshiga qo'yib olishda ko'maklashar, qanday qilib oson ko'tarib ketish yo'lini o'rgatgan ekan.

Xamovnikidan Nikol'skiy ko'chasigacha yo'l uzoq, konka esa, juda qimmat turadi.

Rus tilidan HUMOYUN
tarjimai.

Davronov Shohjaxon Rizamat o'g'lining 05.05.06 — Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Fotoelektrik modullarning chiqish parametrlarini tashxislash va boshqarish ko'p funksiyali qurilmasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 1-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti konferensiyalar zali.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kiei_info@edu.uz

Karimov Ilxom Arslanovichning 04.00.10 — Geotexnologiya (ochiq, yerosti va qurilish) ixtisosligi (texnika fanlari) bo'yicha "Uranni yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishda qiyin tuzilishga ega ma'dan qatlamini oksidlashning maqbul texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/04.06.2021.T.06.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 13-noyabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, Mahmud Torobiy ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com

Bozorov Lutfulla Ubaydullayevichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Sanoat chiqindi suvlarini tozalash uchun ikkilamchi polivinilxlorid asosida sorbentlar olish va ularning qo'llanilishi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 2-noyabr kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.
Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Kholmurodov Maxmatkarim Pattayevichning 11.00.05 — A'trof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish (kimyo fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Surxondaryo viloyati tabiiy suvlarining radioekologik tadqiqoti va monitoringi" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 3-noyabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.
Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Abdiqudov Shavkat Abdihomidovichning 11.00.05 — A'trof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish (kimyo fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Surxondaryo viloyati atmosfera havosining radon-222 bilan zararlantirishini radioekologik baholash" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 3-noyabr kuni soat 13:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.
Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Abduraxmanova Shaxnoza Abdusakimovnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining intellektual ko'nikmalarini multimedia texnologiyalari asosida rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogika innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 3-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

To'xtayeva Zabo Sharifovnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'limda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash metodikasi (yengil sanoat yo'nalishlari misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogika innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 3-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Paluanov Daniyar Tanirbergenovichning 05.09.06 — Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo'yicha "Yumshoq gruntlarda past bosimli gidrotexnika inshootlari zaminlarini hisoblash uslublarini takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 16-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.
Tel: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

G'ulomov Oybek G'ayratovichning 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Bo'zsuv derivatsiya kanali suv oqimini o'tkazish inshootlarining gidravlik hisoblash usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.
Tel: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Ernazarov Azizbek Ilxomjon o'g'lining 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Qishloq xo'jaligi ekinlarini egatlab sug'orishda tuproq namligini boshqarishning gidravlik usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.
Tel: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Asqarov Baxodirjonning 01.04.06 — Polimerlar fizikasi, 02.00.12 — Nanoximiya, nanofizika va nanotexnologiya ixtisosliklari bo'yicha "Vibron tushunchalari asosida polimer nanotizimlarda yuzaga keluvchi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonlarini sinergetik modellashtirish" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-b" uy.
Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

Zaripova Dilnoza Yashinovnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosliklari bo'yicha "Perimenopauzal davrdagi ayollarda osteoporozni bashorat qilishning zamonaviy jihatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/13.05.2020. Tib.93.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 9-noyabr kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Rahimov Ashraf Rasul o'g'lining 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Suv oqimining nobarqaror harakatidagi gruntli kanallarning deformatsiyasini tadqiqotlash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021.T.111.04 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: qmii@qmii.uz, kiei_info@edu.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2004-yil 25-iyundagi qaroriga binoan Inagamova Lola Usmanbekovnaga berilgan B № 157712 (ro'yxat raqami 219) raqamli O'zbekiston Respublikasi BAKALAVR DIPLOMI va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Toshkent tijorat va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2018-yil 23-iyundagi qaroriga binoan TOXIROVA Nozimaxon Lutfulla qiziga berilgan K № 0332708 (ro'yxat raqami 1181) raqamli imtiyozli O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kolleji DIPLOMI va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi tomonidan 2019-yil 21-iyunda Erkinov Baxrombek Ulug'bek o'g'lga berilgan UM № 0265234 raqamli ATTESTAT yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 91-sonli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab tomonidan 2021-yil 18-iyunda Komilova Shaxzodaxon Sobir qiziga berilgan UM № 1168509 raqamli SHAHODATNOMA yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Sevimli "Marifat"
gazetangizga
obuna bo'ling!



"MA'RIFAT" GAZETASIGA 2022-YIL UCHUN OBUNA BO'LIH TARTIBI:

☒ Endi tahririyatimizga murojaat qilib, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan obuna bo'lishingiz mumkin.

Telefonlar: (71) 233-56-36,

(71) 233-42-92,

(71) 233-85-09.

Bunda sizga telegram yoki elektron pochta orqali obuna blankasi jo'natiladi.

☒ 149 indeksi orqali imtiyozli, arzonlashtirilgan narxda obuna rasmiylashtirishingiz mumkin. Faqat bunda to'liq bir yilga obuna bo'lishingiz kerak bo'ladi. Bu indeks orqali bir yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm.

☒ 150 indeksi orqali 1 yildan kam muddatga ham (3 oy, 6 oy) obuna bo'lishingiz mumkin. Bunda 1 yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **447 005**, Viloyatlar uchun **505 310** so'm.

☒ Klik va Payme ilovalari orqali ham onlayn tarzda obuna bo'lish imkoniyati bor. Ilova orqali obuna bo'lsangiz yuqorida ko'rsatilgan narxdagi summami (Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm) kiritasiz. Obuna bo'lganingizdan so'ng **71 233-56-36**, **71 233-42-92**, **71 233-85-09** telefon raqamlari orqali tahririyat bilan bog'lanishni unutmang.

Bizga to'lov qilinganligi haqida fotoma'lumot va gazetani yetkazib berish manzilini yuborishingiz kerak.

Endi **Payme** va **CLICK** orqali
to'lov qilib obuna bo'ling!

Qo'shimcha xizmat
to'lovlarisiz tahririyat bilan
to'g'ridan-to'g'ri
obuna shartnomasini
tuzing.

Gazetalarimizga 2022-yil uchun obuna davom etmoqda!



Marifat

Ўзбекистон
УЗБЕКИСТАНА



facebook.com/marifat.uz

t.me/marifatziyo

www.marifat.uz

(71) 233-56-36

(99) 040-00-76

(71) 233-42-92

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150, V-4897. Tiraj 7491.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona - (71) 233-50-55;
kotihiyat - (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi -
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6